

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

MUSAQULOV MIRZOHID SHAVKAT O‘G‘LI

**O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA BADIY VOSITALARNING O‘RNI
(S.SAYYID IJODI MISOLIDA)**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishi**

**Ilmiy rahbar
prof. Soliyev A.**

**SAMARQAND - 2015
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

HOZIRGI ZAMON O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

MUSAQULOV MIRZOHID SHAVKAT O'G'LI

**O'ZBEK SHE'RIYATIDA BADIY VOSITALARNING O'RNI
(S.SAYYID IJODI MISOLIDA)**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavriat
ta'lim yo'nalishi**

Ilmiy rahbar:	prof. Soliyev A.
Rasmiy taqrizchi:	Orif Hoji

Malakaviy bitiruv ishi hozirgi zamon O'zbek adabiyoti kafedrasining 2015-yil 22-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan (11-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:	dots. Nosirov A.
------------------------	-------------------------

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2015 yil ____ iyundagi yig'ilishida himoya qilingan va ____ foiz bilan baholangan. (____ -son bayonnoma)

YaDAK raisi:	prof. Turniyozov N.
A'zolari:	_____

SAMARQAND - 2015

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti
Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti kafedrası**

**MUSAQULOV MIRZOHID SHAVKAT O‘G‘LI
O‘ZBEK SHE’RIYATIDA BADIY VOSITALARNING
O‘RNI (S.SAYYID IJODI MISOLIDA)**

Bitiruv malakaviy ishi

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi**

Ilmiy rahbar prof. Soliyev A.

SAMARQAND - 2015

REJA:

I. Kirish.

II. Asosiy qism:

I. Bob. Sirojiddin Sayyid ijodining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni.

I.1. Shoir she‘riyati va badiiy mahorat

I.2. Shoir she‘riyatida vatan mavzusi va vatanparvarlik ruhi

I.3. Sirojiddin Sayyid she‘rlarida qaldirg‘och timsoli

I.4. Sirojiddin Sayyid she‘rlarida armon tasviri

II. Bob. Dostonchilikdagi izlanish va novatorlik.

II.1. Sirojiddin Sayyid dostonlari

II.2. Hozirgi o‘zbek adabiyotida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yaratilgan dostonlar

II.3. “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...(Firoq va sog‘inch dostoni)”

III. Bob. Sirojiddin Sayyid ijodida she‘riy san’atlarning o‘rni.

III.1. O‘xshatish san’atining shoir ijodida tutgan o‘rni

III.2. Talmeh san’ati va tarixiy mavzu

IV. Xulosa.

V. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek adabiyoti mafkuradan xoli bo'lib, ijod erkinligi bo'y ko'rsatgach, adabiyotda shakliy-ifodaviy eksperimentlar ko'lami kengaydi. Qalam ahlining ijodiy izlanishlari uchun katta ufqlar ochildi. Shoirларimiz ijodida inson hissiyotlari qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi ismsiz va rangin iqlimlarni poetik kashf etishga urinish kuchaydi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bo'lganidek, ma'naviy sohada ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Istiqlol mafkurası xalq va jamiyat hayotiga chuqur singib borayotganligining o'ziyoq bu fikrni isbotlaydi.

“Adabiyot va mafkura munosabati qanday bo'lishini quyidagicha izohlash mumkin: ijodkor muayyan mafkuraga moyil bo'lgani holda uning estetik ideali umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan, demakki, bu idealda ko'hna zamonlardan beri ajdodlarimiz intilib yashayotgan ezgu maqsadlar o'zining quyuqlashgan ifodasini topgan. Umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan ideal zamonda cheklangan emas: ideal – ajdodlarimiz eng qadim zamonlardan intilib yashagan ezgu maqsadlar avloddan avlodga to'lishib, mukammallashib, sayqallanib boradiki, bu jarayon uzluksiz va benihoyadir”¹, -deya qayd etganida adabiyotshunos D.Quronov to'g'ri fikrni aytgan edi.

Yurtboshimiz “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ma'naviyat nima, degan savolga javob tariqasida quyidagilarni qayd etadi: “Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”². Adabiyot ham insonning ma'naviy olamini yuksaltiruvchi ana shunday bosh mezon hisoblanadi.

Inson ma'naviy kamolotida adabiyotning o'rni xususida ham quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: “Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi,

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: “Fan” 2007. – 228 b. 47-sahifa.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, “Ma'naviyat”. 2013. –176 b. 19-sahifa.

uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug‘ adib Cho‘lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi”³. Darhaqiqat, “Istiqlol va mustaqillik ma’naviyati tozarish faslini boshladi. Barkamol inson yaratishning miqyosi va mazmuni kengaydi: islom yuksak madaniyat va ma’naviyatimizning asosiga aylandi”⁴.

«Iloyo, har kimga hayotida iftixor nasib etsin. Iftixorning go‘zal shaklu shamoyillari ko‘p. Ularning eng avvali, albatta, xalqu Vataningdir! Undan so‘ngra, balkim, ustozu shogirdlar. Shu ma’noda, jumladan, men o‘zimni nihoyatda baxtli insonlardan biri deb hisoblayman. Ulug‘ xalqim, buyuk ustozlarim, ko‘z-ko‘z qilishga arzigulik sofdil shogird ukalarim bor. Shoyon she’riyatimizda esa, ana shunday iftixorlarimizdan biri, shubhasiz, Sirojiddin Sayyiddir». Ustoz Abdulla Oripovning ushbu e’tirofi ham Sirojiddin Sayyidning ijodkor sifatidagi salohiyati havas qilarli ekanini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi fikrlarni bir maxrajga umumlashtiradigan bo‘lsak, o‘zbek adabiyotida yangicha yo‘sinidagi asarlarning namoyon bo‘lish yo‘llarini, badiiyatini, estetik ahamiyatini, umuminsoniy va milliy ildizlarini, taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish dolzarbdir. Shu ma’noda, Sirojiddin Sayyid ijodi misolida o‘zbek she’riyatida badiiy vositalarning o‘rni xususida fikr yuritish mustaqillik davri o‘zbek she’riyati manzaralari haqida muayyan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi shu jihati bilan dolzarb hisoblanadi.

Ishning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi yangi shakl va mazmun jihatdan boyib borayotgan badiiy adabiyotdagi o‘zgarishlarni ko‘rsatib berish orqali janrlar taraqqiyotidagi poetik talqin xususiyatini va badiiy vositalarning ahamiyatini Sirojiddin Sayyid ijodi misolida asoslashdan iboratdir.

³ Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. –T.:“O‘zbekiston”, 2009.–176 b. 39-sahifa.

⁴ H. Umurov. Tahlil chizgilari. – T.: “Muharrir”, 2013. – 312 b. 239-sahifa.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotiga doir bir qator tadqiqotlarda Sirojiddin Sayyid ijodiy portretiga chizgilar berilgan, ayrim kitoblariga e'lon qilingan taqrizlar ham bor. Istiqlol davri she'riyati haqidagi chop etilgan maqolalarda shoir ijodining mustaqillik davri she'riyatidagi o'rni xususida mulohazalar bildirilgan. Ammo ijodkorning poetik mahorati va ijodiy individualligiga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar yaratilmagan.

Ishdan kutilayotgan asosiy maqsad, O'zbek she'riyatida badiiy vositalarning istiqlol davri she'riyatidagi poetik va ifodaviy talqinlari hamda Sirojiddin Sayyid ijodi misolida shoirning poetik olamini imkon darajasida tadqiq etishdan iborat. O'z navbatida, ushbu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

- Sirojiddin Sayyid ijodi haqidagi adabiy–tanqidiy fikrlarga munosabat bildirish;
- Uning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni va ijodining badiiy estetik mezonlarini belgilash;
- Shoir she'riyati va badiiy mahoratiga doir qarashlarni umumlashtirish;
- Sirojiddin Sayyidning dostonchilikdagi izlanish va novatorligining o'ziga xosliklarini tadqiq etish;
- She'riy san'atlarning Sirojiddin Sayyid ijodidagi o'rnini aniqlash orqali ijodkor mahoratini ko'rsatish;
- Shoir ijodidagi badiiy-uslubiy izlanishlarni yangicha ilmiy-estetik tahlilga tortish;

Ishning ilmiy yangiligi. Sirojiddin Sayyid ijodi haqida bildirilgan mulohozalarni umumlashtirgan holda uning bir qator to'plamlarida e'lon qilingan she'r va dostonlariga adabiy-estetik tamoyillar asosida, adabiyotshunoslarimizning nazariy qarashlarini tadbiq etib, shoir poetik mahorati va ijodiy individualligi xususida muayyan xulosalar chiqarilgan. Sirojiddin Sayyid ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, mustaqillik davri she'riyatidagi egallagan nufuzi, badiiy mahorat, dostonchiligi, ijodiy izlanish va novatorlik, she'riy san'atlarining badiiy

kashfiyotlar yaratishdagi ahamiyatini tadqiq etish bilan ijodkorning o'ziga xos qirralari va asarlarining yangicha talqinlari ochib berilgan.

Tadqiqot metodi va metodologiyasi. Prezidentimizning “Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor” risolasi, “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarlarida ilgari surilgan ma'naviy-estetik qarashlar, adabiyotga oid fikrlarini umumlashtirish hamda Sirojiddin Sayyid ijodiga adabiyotshunoslarimizning fikr-mulohazalari ishning metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqot obyekti. O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid hayoti va ijodi haqida ma'lumot to'plash, shoir ijodi bilan bog'liq ilmiy maqolalarni o'rganib chiqish, shuningdek, ijodkorning shu paytga qadar nashr qilingan kitoblaridagi she'rlar, dostonlarni nazariy manbalar va asar matniga tayangan holda ilmiy jihatdan tahlil qilish tadqiqot predmeti va obyekti tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Ushbu kichik tadqiqotimizdagi ma'lumotlardan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hozirgi o'zbek she'riyatining o'ziga xosliklarini o'rganishda foydalanish ko'zda tutilgan. Sirojiddin Sayyidning ijodini o'rganish uchun uslubiy qo'llanma vazifasini bajaradi.

Tadqiqot tuzilishi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 72 sahifani tashkil etadi.

I BOB.
SIROJIDDIN SAYYID IJODINING
O‘ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

I. 1. Shoir she‘riyati va badiiy mahorat

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid she‘rlari rang-barang obrazlarga, turfa xil badiiy detallarga, go‘zal tasviriy vositalarga boy bo‘lib, unda she‘riyatning turli janrlari, she‘riy san‘atlarning ko‘plab namunalarini uchratamiz.

Shoir she‘riyatining mavzu ko‘lami keng. Vatan haqida so‘z aytganida shoir: yurt taqdiri, millat buguni va ertasi uchun kuyunchak, o‘tmishdan saboq olib, kelajakka dadil qadam tashlab, bu yo‘lda mard, jasur, shijoatli va matonatli bo‘lgan inson, ilm olishda, izlanishda tolmas, ma‘naviy kamolot sari intiluvchan farzand, vatanning chin egasi sifatida yurtning porloq ertasi uchun mas‘ullikni ruhan va qalban his etgan, anglagan (anglatuvchi), fidoyi bir shaxs timsoli bor bo‘y-basti bilan gavdalanadi. Muhabbat haqida kuylaganida esa ishq sinovida toblangan, shu ishq ila poklangan oshiq siymosi zuhr etadi.

Shoir she‘rlarida istiqlool shukuhi, mustaqillik tarovati va zamonamiz ruhi ufurib turadi. Shuningdek, insonning ichki olamini poetik kashf etishda, sevgidek samimiy tuyg‘ular tarannumida ruhiyat manzaralarini go‘zal dalillar bilan badiiy bo‘yoqlarda mohirona tasvirlaydi.

Filologiya fanlari doktori Nurboy Abdulhakim “Ruhim xaritasi”dan “Dil fasli”gacha” nomli maqolasida Sirojiddin Sayyid ijodining ilk bosqichlari haqida quyidagi fikrlarni qayd etadi: “Iste’dod Xudodan beriladi. Har qancha mehnat va zahmat mahsuli bo‘lmasin, iste’doddan bebahra ijod yuksak maqomga ko‘tarila olmaydi. Chinakam iqtidor sohibi ilk asarlaridanoq ko‘ngillarga yo‘l topadi. Dastlabki ijod namunalari bilanoq e‘tirof qozonadi, nazarga tushadi. O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ana shunday salohiyat egalaridandir.

She‘riyat muhoblari yaxshi biladilar: shoirning ilk kitobi «Ruhim xaritasi» nomi bilan chop etilgan. Shubhasiz, birinchi kitobi nashr qilingan yosh shoir

yuragida andak hadik, bir oz hayajon bo'ladi. «Ustozlar nima der ekan?» degan xavotir chulg'aydi uning qalbini. «Toshkent oqshomi» tahririyatida xizmat qilayotgan ana shunday xayollar og'ushidagi shoirga kutilmaganda kimsan ustoz Abdulla Orifning o'zi telefon qilib: «Kitobingni o'qidim, Siroj! Ana shu mo'jaz kitobdan katta qadamlarning tovushi kelyapti» degani, birinchidan, ustoz ijodkorning yangi avlodga xayrixoh nazari ifodasi bo'lsa, ikkinchidan, toza, samimiy e'tirofni anglatadi. Binobarin, Sirojiddin Sayyid 1984-yili chop etilgan ana shu ilk kitobi bilanoq o'zining ijodiy kelajagi haqida muayyan tasavvur bera oldi”⁵.

Shundan buyon shoirning «Salqin xarsanglar kaftida», «Sevgi mamlakati», «Asragil», «Mehr qolur, muhabbat qolur», «Kuydim», «Vatanni o'rganish», «Ko'ngil sohili», «Ko'ksimdagi zangorlarim», «Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni» singari o'n beshga yaqin she'riy to'plamlari chop etildi. Eng muhimi, uning ijodi to'plamdan to'plamga, kitobdan kitobga sayqal topa bordi. Mohiyatan teran, badiiy jihatdan barkamol she'rlari o'quvchi qalbini zabt qilishda davom etayotir.

N.Abdulhakim yuqorida aytilgan maqolasida bir voqeani xotirlash bilan Sirojiddin Sayyidning hozirgi o'zbek adabiyotida mustahkam o'ringa ega ekanini ta'kidlab o'tadi: “E'tiborga loyiq bir voqea: adab ahli davrasidagi bir suhbatda yosh, iqtidorli shoir she'r o'qidi. Gashtakda ishtirok etgan ustoz ijodkorlardan biri: «She'rlaringizning saviyasi ancha baland, biroq ularni o'qishda Sirojiddin Sayyidga taqlid qilar ekansiz. Agar yaxshi shoir bo'lishni orzu qilsangiz, har qanday taqliddan saqlaning», deb nasihat qildi. Ustozning fikri to'g'ri, shubhasiz. Men e'tiborni masalaning boshqa jihatiga qaratmoqchiman: yosh iste'dodlar hammaga ham ergashavermaydi...

Bu voqea navqiron ijodkorlarning Sirojiddin Sayyidga havas qilishiga yagona misol emas. Shoirning milliy she'riyatimizda o'z o'rniga ega ijodkor ekaniga yana ko'plab dalillar keltirish mumkin. Dastlabki to'plamlaridan keyingi

⁵ Саййид С. Сўз йўли: Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2-жилд. – Т.: “Шарк”, 2008. – 384 б.357-саҳифа.

«Kuydim», «Vatanni o‘rganish», «Ko‘ksimdagi zangorlarim», «Ko‘ngil sohili» kabi kitoblarigacha, ulardan «Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni» nomli saylanmasi-yu «Dil fasli»gacha shoir ijodi tobora yuksala bordi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmas.

Vatan haqida yozmagan birorta ham shoir bo‘lmasa kerak. Lekin Sirojiddin Sayyidning bu mavzudagi bitiklari, salaflari va zamondoshlari nazmini takrorlamaydi. Mana bu misralar ham fikrimizni tasdiqlaydi:

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,
Kipriklarim o‘psalar bas gardlaringdan.
Men bir nasim bo‘lib keldim, men bir nasim,
Aytib o‘tsam deymen ko‘hna dardlaringdan.

Sirojiddin Sayyid - dardli shoir. Zero, chinakam she‘riyat darddan, iztirobdan tug‘iladi. Shoirning zohiran quvonchli holatning go‘zal poetik ifodasi berilgandek ko‘ringan misralari zamirida ham elning, yurtning g‘amida yashayotgan ko‘ngil iztiroblari sirqib turadi. «Ayvonlari nurga talosh, kayvonisi oy-u quyosh» bo‘lgan Vatan haqida «ko‘zida yosh, yuzida yosh» bilan yozishining sababi shunda.

Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni...

Benihoya jozibali misra. Binobarin, uyning ayvoniga qaldirg‘och ko‘nishi - baxt timsoli. Harholda, xalqimiz uyga qaldirg‘ochlarning in qurishini saodat darakchisi sifatida qabul qilib kelgan. Shoirning she‘rlarida ana shunday xalqchil, ko‘ngilga yaqin, qalbning nozik torlarini-da chertib yuboradigan misralar ko‘p»⁶.

Adabiyotshunos olim Abdug‘ofur Rasulov “Badiiylik bezavol yangilik” nomli maqolasida quyidagi fikrlarni alohida ta’kidlab o‘tadi: “Badiiylik – asarning ruhi, “joni”, borlig‘i. Mana shu ruh, “jon” asardagi ijtimoiy munosabatlarni, xarakterlar to‘qnashuvini, siyosiy qarashlarni, mafkuraviy-axloqiy holatlarni – umuman asarning makoni, zamoniga oid ma’lumotlarni aks ettiradi. Badiiylikning ma’ni-ma’nosi ham zamon, muhit, zamondoshlar, turlicha qarashlar haqida keng

⁶ Саййид С. Сўз йўли: Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2-жилд. – Т.: “Шарқ”, 2008. – 384 б.359-саҳифа.

va mo‘l ma’lumot berishdir. Badiiy asardagi “yuk” – g‘oyaviy asos kitobxonga malol kelmasligi uchun nima qilish kerak? Asar faqat va faqat badiiylikka asoslanishi lozim, xolos.

Badiiyluk – yuksak iste’dodning hosilasi, shakllanishidir. Iste’dodni ko‘rish, vaznini o‘lchash mumkin bo‘lmaganidek, badiiyluk darajasini dafatan belgilash, ta’sir kuchini aniq ifodalash mushkul”⁷. Ushbu fikrlarga asoslangan holda Sirojiddin Sayyid ijodida badiiy vositalar va badiiy tasvirlar qamrovi keng ekanligini yana bir karra eslatib o‘tmoq o‘rinli.

Mana yana bir misol:

Kim Vatanni zar to‘niga eng etmishdir,
Kim bag‘rini osmonlarday keng etmishdir.
Yaratganning o‘zi bugun teng etmishdir
Asrlarga onlarini, onlarini.

To‘g‘ri, bu iqtibos G‘afur G‘ulomning «Asrlar taqdiri lahzalarda hal», degan misrasiga bir qadar uyg‘un. Lekin Sirojiddin Sayyidning yutug‘i shundaki, u ifodaning mutlaqo o‘ziga xos, ohorli usulini topa bilgan. «Vatanni zar to‘nga eng etish» - yurakka yaqin, yorqin va obrazli talqin. Umuman, boshqa ko‘p she’rlari qatori shoirning bu misralarida ham teran mazmun, go‘zal tashbih va betakror badiiyat mutanosibliigi kuzatiladi.

D.Quronov lirik asar tili haqida shunday yozadi: “Lirik asar tilining emotsionalligi ko‘proq lirik qahramonning konkret paytdagi (lirik asarda badiiy vaqtning juda qisqaligi, “hozir” bilan belgilanishini e’tiborga olish zarur) kayfiyati, holati, kechinmalari bilan bog‘liq bo‘ladi”⁸. Ijodkor mahorat qirralarining namoyon bo‘lishi asarning shirali tiliga ham bog‘liq, albatta. Sirojiddin Sayyid she’riyatida xalq tiliga yaqinlik uni xalq qalbiga yaqinlashtirdi desak, adashmaymiz.

⁷ Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик: илмий-адабий мақолалар, талқинлар, етюдлар. – Т.: “Шарк”, 2007. – 136 б, 120-саҳифа.

⁸ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т.: “Fan” 2007. – 228 б. 47-sahifa.

“Talantlar ham tabiatan har xil bo‘ladi. Fransuz mutafakkiri Monteskyodan so‘rashganda, u talantning mohiyatini tushuntirib, shunday yozadi: “Boshqa odamlar qiynalib bajargan ishni osonlik bilan ado etgan kishi – bu iste’dod egasidir. Endi talantlarning ham qurbi etmagan yumushlarni oppa-oson uddalashlik esa – bu kamyob iste’dodlargagina matlub”, Sirojiddin Sayyid ijodi, she’riyati ana shunday kamyob iste’dodning yorqin bir ko‘rinishidir. Uning nomini xalqimizning kekxa-yu yoshi yaxshi biladi. Asarlarini sevib o‘qiydi. Zero, bunday tansiq mehr-muhabbatga barmoq bilan sanarli ijodkorlargina nasib bo‘lgan”⁹, -deya taniqli olim N.Rahimjonov o‘z mulohozalarini “Dil manzillari (Sirojiddin Sayyid ijodiy portretiga chizgilar)” nomli maqolasida shoir ijodiy individualligi xususida batafsil ma’lumot beradi.

Shoirning adabiyotimizga kirib kelgunidan to bugunga qadar bo‘lgan ijodidagi o‘ziga xoslik va poetik mahorat qirralari haqida N.Rahimjonov quyidagilarni qayd etadi: “Sirojiddin Sayyid birinchi to‘plami bosilgunga qadar gazeta-jurnallardagi o‘nlab she’rlari bilan yorqin iste’dodini namoyish qilgan, ilmiy-adabiy jamoatchilikning, keng o‘quvchilar zumrasining ixlos-e’tiborini qozongan edi. Sirojiddin she’riyatimizga o‘z daryolari, tog‘- u dashtlari-yu yomg‘irlari, qaldirg‘ochlari-yu shamollari bilan toshqinib kirgan shoir. Uning eng suygan va sadoqatli mavzusi – bu Vatan. Ona yurt shoni-shavkati, sarvati, hurriyati haqida so‘ylaganda ichiga sig‘may ketadi. To‘lib-toshib she’r aytadi. “Vatan abadiy”, “Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni” singari o‘nlab majmualari, dostonlari, she’riy turkumlari Sirojiddin nomini ona yurt sarhandlaridan tashqariga olib chiqdi. Qardosh xalqlardan ham muxlislar orttirdi. She’r sehri, she’r mehri ko‘ngillarni zabt eta borgani sayin sarhadlarini ham kengaytirar ekan. Shoirning o‘zi esa ijodiga nisbatan o‘ta talabchan. “Bu arzimas bitiklarim ham o‘z ko‘nglim oldida, hayotim-u ko‘rgan-kechirganlarim oldida ma’lum ma’noda o‘zimning kamtarona sarhisobimdir. O‘choqdagi o‘t boshqa-yu yurakdagi o‘t boshqa deganlaridek, bu yozganlarim – balki mening yana bir urinishim, ko‘ngilga tomon

⁹ Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: “Фан” 2007. 152-саҳифа.

mening yana bir chogʻlanishimdir. Yozilmagan katta sheʼrlarning parchalaridir balki, bular; balki kunlarim, tunlarimning boʻlaklaridir, bilmayman. Nima boʻlganda ham boshimdan, koʻnglimdan kechirdim shularni”. Koʻrinadiki, Sirojiddin shoirlikni mehnat deb, qismat deb biladi. Non-tuz ichgan el-yurtning, kindik qoni tomgan tuprogʻining shaʼnini yuksaltirish deb biladi”¹⁰.

Xalqimiz Sirojiddin Sayyid sheʼrlarini sevishligi, ardoqlab oʻqishligi bejiz emas. Har gal kitobxon uning “Vatan abadiy”, “Ey dil ahli, ey gul ahli”, “Bolalik qaytmadi”, “Soʻz yoʻli”, “Dastxat”, “Shamnoma” turkumlarini qoʻliga oladimi. “Ustodi avval”, “Mezon ketdi, aqrab ketdi, qavs ketdi”, “Bolalik”, “Eski uy”, “Teskariga oqqan daryolar qaytdi”, “Oʻrganing”, “Men qoʻngil dunyosining dogʻidaman”, “Bahor koʻpriklari”, “Vatanni oʻrganish”, “Vatan”, “Vatan nadir”, “Ilinj”, “Vatan yodi”, “Bagʻishlov” va h.k. oʻnlab sheʼrlarini oʻqiganda doimo yangi-yangi fikrlar uygʻotaveradi. Ajib sehrli tuygʻular girdobiga choʻmdiraveradi.

Darhaqiqat, poeziya hayotni, insonni tasvirlar ekan, tasvir obyektini shoir tomonidan chuqur his etilgan, estetik oʻzlashtirilgan boʻlish bilan birga, ijodkorning qalb qoʻri-la yoʻgʻrilgan boʻlmogʻi lozim; tasvir obyektini shoirning qalb mulkiga aylangan taqdirdagina lirik hodisa yuz beradi¹¹. Sirojiddin Sayyid sheʼrlarida tasvir obyektini shoirning qalb mulkiga aylangan va shu sabab ham oʻquvchiga tezda yetib boradi, qalb-u shuuridan joy oladi.

“Shoir sheʼrlariga oshiftalikni bir ogʻiz soʻz bilan ifodalash qiyin. Lekin, nazarimda, bu narsa Sirojiddin Sayyid ijodida hayotga beparvo, voqelikka befarq, odamlar taqdiriga loqayd sheʼrlarning yoʻqligi bilan izohlanadi. Bu esa, shoir joʻshqin hayotning dolzarb muammolari, qaynoq nafasi ogʻushida yashab kelayotganligining dalolatidir. Shoir ijodiy individualligining oʻziga xosligi shundaki, hayotimizdagi shunday hodisalarni, odamlararo munosabat koʻrinishlarini tanlab oladiki, u shoir qalbida katta bir ilhom alangasini yoqadi. Shoirning badiiy talqini, ijtimoiy-estetik umumlashma fikrlari samarasida

¹⁰ Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: “Фан” 2007. 153-саҳифа.

¹¹ Бобоев Т. Шеър или таълими. – Т.: “Ўқитувчи”, 1996. – 344 б. 6-саҳифа.

voqelikning ana shu mitti bo‘lagi millat va Vatan taqdiriga daxldorlik mohiyati bilan namoyon bo‘ladi.

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,
Kipriklarim o‘psalar bas gardlaringdan.
Men bir nasim bo‘lib keldim, men bir nasim,
Aytib o‘tsam deyman ko‘hna dardlaringdan.

Darhaqiqat, shoir satrlari subhi saboda esgan nasim yanglig‘ dillarga huzurbaxsh tuyg‘ular, shuurlarga shabboda misol fikr-o‘ylar olib kiradi. Ko‘nglimizda betakror obrazlari bilan muhrlanib qoladi. Gard, nasim, sas, xas, barg, chiroq, buloq detallari lirik qahramonning mehr-muhabbatini tiniqlashtirayotir, aniq va to‘liq mag‘zli ma’nodorlik bag‘ishlayotir. Badiiy umumlashma fikr uchun xizmat qilayotir”¹².

Shu o‘rinda shoir she’riyatidagi ustuvor yo‘nalish va timsollar, she’rlaridagi aks ettirilgan qahramonlar haqida ham ushbu maqolada keng qamrovli ma’lumotlar beradi: “Sirojiddin Sayyid lirikasida mehnatkash zamondoshlari o‘zbek dehqoni hayot falsafasini poetik tadqiq etish, uning ezgulik, adolat, insoniylik haqidagi qutlug‘ tushunchalarini tiriklik mas’uliyati, umrlar mohiyati bilan uzviy aks ettirish ustivordir. Ushbu xususiyatlar Sirojiddinning dastlabki she’rlaridayoq (“Men dunyoga nomimni...”, “Navoiyni o‘qish”, “Bu – sening uyingdir”, “Dehqon madhiyasi”, “Onamning kalishlari”, “Yomg‘irlar va ko‘z yoshlar” va h.k.) kurtak tuggan, muvaffaqiyati bilan barobar badiiy tafakkur tabiatining o‘ziga xosligini ta’minlagan edi.

Sirojiddin Sayyid ilk she’rlaridanoq ulkan ustodlari G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Orif yo‘lini davom ettirishga, ulug‘lar ijodiy faoliyatining umrzoqligini ta’minlagan millat ma’naviy-intellektual qadriyatlarini ulug‘lashga, badiiy-falsafiy tadqiq etishga intilib kelmoqda. She’r aytishni sal-palgina o‘rgandim men chinorlarda yig‘lab yotgan barglaringdan, deydi lirik qahramon. Ana shu she’r mag‘zini tashkil etgan So‘z – bu xalqimizning yuksak insoniylik, go‘zallik, adolat

¹² Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Т.: “Фан” 2007. 154-саҳифа.

haqidagi ezgu tushunchalaridir, ideallaridir. Xalqimiz yaratgan boqiy moddiy va ma'naviy boyliklardir.

Bu dunyoda ko'ngillarga chirog' yoqsam,
Mozorlarning sukutidan saboq olsam,
Tiniqqina buloq bo'lib oqib qolsam,
Olloyorlar nazar qilgan jarlaringdan,

deydi "Ilinj" she'rining lirik qahramoni. Ko'rinadiki, shoir lirikasi epik tasvir imkoniyatlari hisobiga badiiy idrok va ifoda ko'lamini tobora kengaytirib bormoqda. Bu narsa, ayniqsa, xalq hayotini tarixiy jihatdan idrok etishga moyillikning kuchayganida, insonning tarixiy shaxs sifatidagi poetik talqinini berish, millat hayotining, ma'naviy-intellektual kamolining tarixiy ildizlarini yoritish, ulardan ijtimoiy-falsafiy umumlashma xulosalar chiqarishning ustuvorligida ko'rinadi. "Mardlar mingan otlaring nomardlarga xor bo'lmas", "Muhabbatni tashlab ketmang bog'larga", "So'z yo'li" va h.k. turkumlari Sirojiddin Sayyid lirikasining yangi bosqichga ko'targanidan, keng imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat.

Sirojiddin Sayyid she'rlarida insonning o'z umri-tirikligi oldidagi mas'uliyati, hayotini ezgu ishlarga safarbar etish burchi, odamlar koriga yarashlikdek qat'iyat ijtimoiy-falsafiy mazmunni belgilab beradi. Shoir aytgandek, odamzod ma'dan bo'lsa, vaqt-bolg'a. O'tuvchi har lahza besamar kechmaydi. Davr chilangar misoli odamlarni hayotda, mehnatda, tiriklik jabhasida pishitadi. Zamon sandoni insonni toblaydi. Ana shu davron otashgohida kimlardandir po'lat unsa, kimdandir temir qalqon unadi. Kimlardir ko'mirga aylanib qolsa, yana kimdandir shu'la unar, uchqunlarga aylanar. Sirojiddinning lirik qahramoni esa o'zgacha muhitda o'sdi, voyaga etdi; kamol topib, o'z shaxsiyatini namoyon etib kelmoqda. U bolaligidan oy, yulduzlar bilan mudom ahdda bo'ldim, deydi. So'qmoqlardan, oq-za'faron dalalardan za'faron so'zlar terib katta bo'ldi. Saboq oldi yanchilmagan somonlardan, umr isi kelib turgan choponlardan. g'arib paxsa devorlardan savod oldi; nima nadomat-u nima savob ekanligini biladi. Qirlarda bag'rini ezib, sigirlari

pag‘a-pag‘a bulutlarga aylanib uchib ketadi. Hayot hikmatlarini darig‘ tutmadi. Ona kaftidagi chiziqlarni uqib xatim chiqdi, deydi u. Kaftlarining taftlaridan kamol topadi. Ona mehri ko‘ngil ko‘ziga aylanadi.

Ta‘lim oldim boshhoqlardan, donlardan ham,
Kulcha yuzlar hamda kulcha nonlardan ham.
Men Vatanni o‘rgandim har giyohidan,
Shomlari-yu rayhonlarin siyohidan.

Qaldirg‘ochlar lirik qahramonning to‘ylarida xizmat qiladi. “Dilga ko‘chdi umriy ranju aziyatlar, o‘ychan kekxa toklar qilgan nasihatlar”. Yurtning har qarichi, har g‘ubori imlo. Har bir toshi, har chinori mullo. Lirik qahramon shaxsiyati ana shunday tabiati to‘kis bir muhitda shalklandi, kamol topdi, el-yurt yumushlariga kamarbasta bo‘lib o‘zligini namoyon etdi”¹³.

Darhaqiqat, insonning hayotdagi o‘rni, o‘z umrini yaxshilikka, go‘zalliklar yaratishga safarbar etishi masalasi har bir avlod ijodkorlarini o‘ylantirib kelayotir. Ushbu masalaga Sirojiddin she‘rlarida o‘zgacha javob izlayotir. Xususan, tezkor, shiddatkor vaqt sur‘atidan boqiy go‘zalliklar yarata olish, hayotdan o‘z o‘rnini topish demakdir. Umr mazmunini salmoqli so‘qmoqlar ochishga qaratish demakdir. Illo, teran ma‘noli fikrgina vaqt tizginini jilovlay biladi. Bu – shaxs psixologiyasida, fikriyatida zohir bo‘lgan o‘zgarishlar samarasidir. Bu – ma‘naviyatlarni boyitgan hissiy tavgakkur qudratidandir. Demak, shaxsning aql-zakovati, tavgakkur salohiyati jamiyatlar hayotiga, odamlarning tiriklik tarziga, ijtimoiy muhitga jiddiy sifat o‘zgarishlari kiritishga qodir. Ushbu hol shaxs maqomiga yetishgan zamondoshlarimizning bashariy qadriyatlarga tayangan e‘tiqodidan, go‘zallik va adolat tuyg‘ularidan bahra oladi.

“Mustaqil fikrlash, eng avvalo, yaxshi-yomonni anglab olish, prinsipiiallik, soflilik (hech narsaga “uchmaslik”, har qanday qiyinchilik va to‘siqlarga bardosh berish), o‘zining haqligini himoya qila olish demakdir. Shaxs, shubhasiz, faqat prinsipiiallik, insoflilik, dadillik, mardlik bilan xarakterlanibgina qolmasdan, balki

¹³ Раҳимжонов Н. Муствакилик даври ўзбек шеърляти. – Т.: “Фан” 2007. 157-саҳифа.

vijdonlilik va olijanoblikni ham ifodalaydi” (Chingiz Aytmatov). Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, nafosatni, go‘zallikni, betakror badiiyat namunalarini, aslida, betakror shaxsiyat egalari yaratadi. Ushbu ijod yo‘li faqat xohish-istak bilan yuzaga chiqadigan bir narsa emas. Iste’dod va yorqin shaxsiyat go‘zal badiiyat namunalariga hayot bag‘ishlaydigan nurdir, aslida. U umr, tiriklik yo‘lining bir bosqichi.

Dunyo sohil, dunyo sohil deb ketdilar,
Ne yo‘lchilar bu sohilga keb ketdilar...
Ko‘ngil asli ko‘pchilikning mulki ekan,
Atrofida uning mudom kulki ekan.
Men bularni durustgina yo‘lchi desam,
Bular bari qashqir, bo‘ri, tulki ekan.

Bu yo‘llarda yana tashlanar ko‘zga maqsad qolib eshagini quvib yurganlar (“Bu dunyoning yo‘llari...” she’ri). Ne tongki, inson tafakkuri va tasavvuri, fikr-mushohada dunyosi yangi tushunchalar hisobiga bag‘oyat kengayib ketdi. Inson aql-idroki nihoyatda qudratli kuchga ega ekanligini his etamiz; hayratlarga tushamiz. Lekin ana shunday bir jarayonda qashqir, bo‘ri, tulki sifat odamlar ham bor. Ana shu xil fe’li noqis, ko‘ngli kemptik odamlar bilan kurash komillik sifatlariga ega bo‘lishning muhim omili hisoblanadi. Ana shu taxlit noqisliklar jamiyatning ham notugalligini ko‘rsatadi. Jamiyatning ma’naviy-axloiy, intellektual qiyofasini odamlar psixologiyasining mukammalligini tayin etadi. Shunday ekan, fuqarolarning ko‘ngli zanglangan va kirlangan yarimta bo‘lgach, fe’li-faoliyati ham shunga yarasha palag‘da kechadi.

Odamlar ongi-shuuri, fikri-zakovati hamisha tarbiyada, takomilda. Sirojiddin Sayyidning lirik qahramoni rayxonlar bargidan siyoh oldim men. Har xasdan ruhga bir giyoh oldim men, der ekan, tabiatdan olinajak ruhoniyl imdod, najotni nazarda tutadi. U ko‘ngil ko‘zini ham ona yurtning turna ko‘zli buloqlaridan oladi. Shu ma’noda, Sirojiddin Sayyid lirik qahramoni hayotining mazmunini, umrning mohiyatini, jamiyatdagi o‘rnini Vatan koriga yarashda, deb biladi. Ona yurt

tabiatidan kuch-quvvat olib, xalq turmushini yanada go‘zallashtirishda, deb tushunadi. Tiriklik – umr mazmuni el-yurt uchun fidoyilikdadir. Ana shu holatda vatanparvar, millatsevar lirik qahramonning ma’naviy-intellektual qiyofasi, ruhoni madaniyati ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. U yana zamondoshlarimiz psixologiyasini nurlantirishiga ko‘ra ham davr obrazini yaratishga xizmat qilayotir.

Aytish joizki, keyingi paytda hayot-tiriklik saboqlari Sirojiddin Sayyid lirikasiga teran mushohadakorlikni olib kirdi. Falsafiy o‘ychanlik, hayotiy hikmat Sirojiddin she’rlarining intellektual saviyasi tabiat va jamiyat tafakkuri ila to‘yinib, boyib borayotganligini ko‘rsatadi.

Bu sham nur sochgandir qasrlarga ham,
Qancha nazmlar-u nasrlarga ham.
Uning shu’lasiga fikr joylasang.
Yetgaydir eng tiyra asrlarga ham.

“Shamnoma” turkumini tashkil etgan to‘rtliklar – bu umrnoma satrlaridir. Zahmatli mehnat ila kechgan umrning hikmatga aylangan sahifalaridir. Hayot saboqlaridan ko‘ngilgaingan tafakkur shu’lalaridir.

She’riyatni agar olmosga qiyoslash joiz bo‘lsa, falsafiy lirika uning eng keskir va o‘tkir, shu’lavor qirralaridan biridir. Agar, olmosning olmosligi metindek qattiqligi-yu shamshirdek keskirlik bilan belgilanar ekan, falsafiy lirika namunalarining o‘ziga xosligi qanday unsurlarda zuhur topadi? Ma’lumki, shoirlar o‘zining badiiy dunyosi bilan bir-biridan farqlanadi. Shoirlar u yoki bu satrlari bilan emas, ma’naviy-intellektual olamining rang-barangligi va teranligi bilan baholanadilar. Chinakam shoir kitobining ilk sahifasini ochish – bu tafakkur olami, tuyg‘u-kechinmalar dunyosi eshigini ochib kirish demakdir. Sirojiddin Sayyid ana shunday salohiyat egasi. Poetik olamini bunyod etish yo‘lida qutlug‘ samaralarga erishayotgan, betakror tafakkur kitobining yorug‘ sahifalarini yaratish baxtiga musharraf bo‘lgan shoir.

“Har bir milliy adabiyot, albatta, o‘z milliy zaminida maydonga keladi. Har bir xalqning hayoti uning adabiyotida o‘z aksini topadi. Har bir yozuvchi birinchi

navbatda, o‘z atrofidagi hayotni – o‘z xalqiga mansub kishilarning xarakterini tasvir etadi”¹⁴.

She’rlari mustaqillikning ma’naviy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga safarbar millatsevar zamondoshlarimizning o‘y-fikrlarini, dardi-yu quvonchlarini, “tuproqdan ham xoksorroq elim”ning g‘am-anduhlari-yu armonlarini aks ettirishga qaratilgan. Shoirning lirik qahramoni mustaqillik sharofati bilan atrof-tevaragimizda kechayotgan hayot buhronlarini, voqea-hodisalar mohiyatini ko‘ra biladi; millat va Vatan manfaatlari, shaxsning ma’nan va fikran kamoli nuqtayi nazaridan baholay oladi. Bu narsa ma’naviy zaruriyat, intellektual ehtiyoj taqozosi tariqasida zohir bo‘ladi (“Ahmad fermer”, “Farzand”, “Ketmonchi qizlarga”, “Hamdardlik”, “Qadrdonlar”, “Bu dunyoda”, “Zamonaning egasi”, “Ilinj”, “Kelib ketmoq” singari o‘nlab she’rlari).

“Shamnoma” turkumining lirik qahramoni ko‘proq real voqealik xossalari bilan bog‘liq tesha tegmagan, ohori to‘kilmagan, ibratli fikr bildirish orqali o‘zligini namoyon etadi. “Xazonlarni yig‘ib yoqmoqda bir chol, Ul mening yoshligim, gul chamanimdir”; “To‘planib to‘planib barcha og‘riqlar, mening ko‘kragimda dil bo‘ldi, ona”, “Bu yorug‘ dunyoda minglab yo‘l topib, O‘zin topolmagan insondan ayting”; “Neki bor, yetishding yelib-yugurib, Ey inson, o‘zingga yetgaysan qachon” singari.

Ota, bu bunyoda har so‘z sotildi.

Begona sotildi ham do‘st sotildi.

Yaxshilik istabon o‘tgan umringiz,

Choponday eskirdi, to‘zdi, sitildi.

Lirik qahramonning tafakkur tarzi xalqona hikmatlarga yo‘g‘rilgan ibratli ma’nolarda ayonlashadi. Individualligini ham anglaymiz. Endi, voqeaband, syujetli she’rlarda esa lirik qahramon o‘zgacha fazilatlari bilan ajralib turadi. Xususan, inson va jamiyat, hayot va tiriklik mas’uliyati, umrning ma’no-mohiyati masalalari yangicha mazmunda badiiy talqin etiladi. Xususan, zamondoshimiz dardchil,

¹⁴ Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. – 272 б. 47-саҳифа.

o'ychan, o'ta mushohadakor. Ko'kragini kerib tantanavor ohangda so'zlashni yoqtirmaydi. Huda-behudaga "vatanimga jonim sadag'a", "el-yurtimga umrim fido" qabilida ko'kragiga urib hayqirmaydi. Vatan, millat, el-yurt, hayot, baxt haqida og'zini ko'pirtirib chapak chalavermaydi. U istiqlol, istiqbol, birlik, hamdard-hamnafaslik, sevinchning ta'mi, sevgining rangi, odamning qadri va h.k. tiriklik ne'mati, umr hikmati, hayot shafotlari to'g'risida mulohaza – muhokamalar yuritadi. Do'ppisini osmonga otib, karnay-surnayga berilmaydi. Ortiqcha mulozamatni, havoyi-tumtaroq gap-so'zlarni yomon ko'radi. Shoir lirik qahramonning xomush fikrchanligi, ma'yus va dilgirliги bejiz emas. Zero, baxtning bebaqo o'tkinchiligi, iqbolning zavoli, kamolning uvoli uni hamisha og'ir o'ylarga toldiradi. Odamlarning makri, do'stning xiyonati, ishongan va qadrdon deb bilgani aslida qabih bir kimsaligi, hayotning qorong'i va mavhum ertasi, sevgi-muhabbat deb yonib kuyganlari dastro'molchadek arziyas bir matah ekanligi girdibodli o'p'qoniga tortib ketadi. Faqat yaxshilik, ezgulik, adolat boqiy yashab qolishi lirik qahramon ko'ngliga taskin yupanch bag'ishlaydi. Bir burda umri besamar kechmayotganligidan qanoat hosil qiladi.

Kelib ketmoq o'yin ermas,
sayohat yo ziyorat,
Umr yo'li zahmatlar-u
mehnatlardan iborat.
Ko'ngillarga qurdingmi bir
ko'prikmi yo imorat?
Ko'rganlarning o'zingniki,
ko'rmaganning gumondir.

Shu ma'noda "Ketmonchi qizlarga" asari shoirning eng dardchil, yoniq alam va iztirob alangasida bitilgan go'zal she'rlaridan biri. U ketmonchi qizlar qismatiga bitilgan qasidadir. Bag'ri yongan, kuygan, xun satrlardir. Uni shunchaki loqaydlik bilan beparvo o'qib bo'lmaydi. U yig'lab o'qiladigan va o'qib yig'latadigan, ko'ksi yara she'r. Lirik qahramon ketmonchi qizlar haqida o'ylasa – o'ylari ko'ksida

kuyadi. Soʻzlasa – soʻzlari boʻgʻzida kuyadi. Ketmoqchi qizlar barglarday soʻlgʻin-u shamlarday ozgʻin, qovjirab dalay-u tuzimda kuygan chechaklardir. Nursiz paykallarda shuʻla yozmayin, tuproqqa qorishib oʻchgan yaproqlardir. Husni-malohatni chanoqlar yulgan, sochlarin gardida nasimlar oʻlgan. Qizlarning tarovati-yu gul yuzini quyosh tushlikka tanovvul qilgan.

Balogʻat chogʻida balogʻat koʻrmay,
Oʻn beshdan uyogʻi halovat koʻrmay,
Zafaron rayhonday zabun oʻtdingiz,
Davru davronlardan sadoqat koʻrmay...
Sonsiz egatlarga tizilganlarim.
Qismati ketmon-la yozilganlarim.

Tunlar paykallarda horgʻin yurgan oy ketmonchi qizlarning zoru mahzun yodgorligi boʻlib koʻrinadi. Baxt, iqbol muallaq va havoyi tushuncha emas. U kundalik mehnat, umr safarbarligi, turmushning tegirmon toshidek zil-zambil yukini ortmoqlash singari bir koʻp omillar orqali vosil boʻlgʻusi. Shu maʼnoda, lirik qahramonning fikr-oʻylari mubham emas. Aksincha, hayotiy voqelikdan sizib chiqishi, subyektiv talqinidagi obyektiv mohiyati bilan haqqoniy mazmun kasb etayotir. Zamon zayli, ijtimoiy voqelik bamisoli tegirmon toshi. Ayollik nafosati-yu nazokati oftob otashida jizgʻanak qovjiragan.

Adabiyotshunos olim Toʻxta Boboyev “Yozuvchi oʻziga, ijodiga gʻoyatda talabchan boʻlishi kerak: bu holni sanʼatkorning zamon oldidagi, el-yurt oldidagi ijtimoiy burchi taqozo qiladi. Yozuvchining isteʼdodi uning axloqiy va ijtimoiy pozitsiyasi bilan ham uzviy bogʻliqdir. Yozuvchi estetik didi tinimsiz oʻsib borayotgan zamon kitobxonlariga zavq-shavq bagʻishlaydigan, ularni maʼnaviy jihatdan boyitadigan, ularga hayot jumboqlaridan saboq bera oladigan sanʼat asarlari yaratishi zarurligini sira-sira unutmasligi lozim”¹⁵, -deya uqtiradi. Sirojiddin Sayyidning oʻz ijodiga gʻoyat talabchan ijodkor ekanligini uning asarlari

¹⁵ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. – 560 б. 67-саҳифа.

isbotlab turibdi. Bu hol tahlil qilinayotgan “Ketmonchi qizlarga” nomli she’rida ham yaqqol ko’zga tashlanadi.

Sirojiddin Sayyidning lirik qahramoni dala mehnatiga bog’langan ketmonchi qizlar qismatini o’ylab teran mushohadalarga beriladi. Ular mehnatning egasi emas, og’ir-zahmatli mehnat qizlarni o’z mute’siga aylantirgan. Yoshligi-yu chiroyiga, malohati-yu umr ziynatiga ketmon ega chiqqan. Bugungi kunda o’z mehnatining quliga aylanmaslikka, iroda kuchlarini dala mehnati zayliga topshirib qo’ymaslikka da’vat bor. O’z fikrini dadil turib yoqlay oladigan, nuqtai nazarlarni himoya qila biladigan vijdon yo’rig’i Sirojiddin Sayyid she’rining bosh qahramoni sifatida bo’y ko’rsatayotir. Bu, insonning hayotdagi o’rni, el-yurt yumushlariga yaray bilishi, faolligi bilan bog’liq zuhur topadi, degan so’zdir. Inson o’z fikriy salohiyati bilan olov bo’lib lovullab yonadi; aksincha, ko’mirdek kuyib tutamaydi.

Bu ma’naviy-intellektual jasorat demak. Vijdon pokizaligi, iymon salomatligi Sirojiddin Sayyid she’rlarining bosh qahramoniga aylanayotir. Hayot go’zalligini kimlar ta’minlayotir, degan savolga beixtiyor ravishda “ketmonchi qizlar-da”, deb javob berasan. Bu sof vijdon amri, pokdomon vijdon yo’rig’idir. O’z salomatligi va go’zalligi evaziga elini to’kin, yurtini chiroyli qilayotgan ketmonchi qizlar jamiyat gullaridir, hayotimiz tojidir.

Lirik qaharmonning fikr ziyosi shundaki, u hayotda “Yaxshi odam kim-u, yomon odam kim”, “yaxshilik nimada-yu yomonlikning fe’li-turqi qanaqa”, degan savollarni ko’ndalang qo’ymasdan asl insoniy go’zallik bilan ma’naviy axloqiy komillik aslida, vijdon pokdomonligidadir, degan nuqtayi nazarni yoqlayotir. Hayotdagi haqsizlikka, huquqsizlikka ishora qilayotir. O’z erkinining xojasi emasligida. Inon-ixtiyorini, iroda kuchlarini zamona zayliga topshirib qo’yanligida.

O’zga manzillardan izlamang bizni, Yoronlar, biz dilga, biz dilga ketdik, deydi shoirning lirik qahramoni

Dil dedim, dil yo’lin xolis yo’l ko’rdim,

Dil tomon yurdim-u olis yo’l ko’rdim.

Do'stlar, bu manzilga yetguncha, go'yo
Ming yil talpindim-u ming yil yo'l yurdim.

Keyingi yillar o'zbek lirikasi taraqqiyotida Sirojiddin Sayyidning ijodiy izlanishlari fayzli, muqim o'rin tutadi. "Saksoninchi yillar", "To'polondaryo bilan xayralashuv" dostonlari, "Xotira" publitsistik poemasi, "Shamnoma", "Bozor iqtisodiyoti", "Dumaloq odam", "Ey dil ahli, ey gul ahli", "Vatan ozod bo'lsin", "Sog'inch torlari", "Dastxat", "So'z yo'li", "Mardlar mingan otlaring nomardlarga xor bo'lmas", "Muhabbatni tashlab ketmang bog'larga" singari turkumlari she'riyatimiz janr imkoniyatlari nechog'lik kengligini tasdiqlaydi. Sirojiddin Sayyid olam bilan odam sir-sinoatlarini, shaxs va jamiyat psixologiyasini anglash hamda tushuntirish borasida muttasil izlanayotganligini isbotlaydi.

Sirojiddin Sayyid ijodida to'rtlik, g'azal, sakkizlik, latifa, rivoyat, doston, muxammas va h.k. poetik janr va shakllardagi badiiy barkamol namunalar yaratildi. Shoir she'riyatining mavzu-masalalar ufqi kengayib, usluban boyib, borayotganligini ham ko'rsatadi. Ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy mavzularni badiiy idrok va ifoda qilishda achchiq istehzo, falsafiy mushohadakorlik, publitsistik da'vat, o'ychan psixologik kechinmalar, yengil yumor unsurlari, hazil ohanglariga singdirilgan fojeiy haqgo'ylik balqib turadi. Bular esa, o'z navbatida Sirojiddin Sayyid lirikasining janr tarkibini boyitishidan, ijtmoiy-falsafiy umumlashma fikrlar, hayotiy ma'nodorlik, psixologik tahlil tobora chuqurlashib borayotganidan ham dalolatdir.

I. 2. Shoir she'riyatida vatan mavzusi va vatanparvarlik ruhi

Sirojiddin Sayyidning poetik obrazlari ona zamindan, o'zbek tuprog'idan kuch-quvvat oladi. Qanot bog'lab ko'kka ko'tariladi. Shoir she'rlarida ona o'lkamiz tabiati, gulzorlarining ifori bo'yi-tarovati, qir-adirlar-u ko'm-ko'k osmonning hidi, rangi balqib turadi. Zamondoshlarimizning orzu kechinmalari, o'y-fikrlari, go'zallik ideali-yu adolat tuyg'ulari o'z ifodasini topadi.

Shoir ijodiy individualligining o'ziga xosligi shundaki, hayotimizdagi shunday hodisalarni, odamlararo munosabat ko'rinishlarini tanlab oladiki, u shoir qalbida katta bir ilhom alangasini yoqadi. Shoirning badiiy talqini, ijtimoiy-estetik umumlashma fikrlari samarasida voqelikning ana shu mitti bo'lagi millat va Vatan taqdiriga daxldor mohiyati bilan namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, shoir satrlari subhi saboda esgan nasim yanglig' dillarga huzurbaxsh tuyg'ular, shuurlarga shabboda misol fikr-o'ylar olib kiradi. Ko'nglimizda betakror obrazlari bilan muhrlanib qoladi. Gard, nasim, sas, xas, barg, chirog', buloq detallari lirik qahramonning mehr-muhabbatini tiniqlashtirayotir, aniq va to'liq mag'zli ma'nodorlik bag'ishlayotir. Badiiy umumlashma fikr uchun xizmat qilayotir.

Ta'kidlanganidek, Vatan va millatga muhabbat tuyg'usi Sirojiddin Sayyid she'rlarining asl mohiyatini, mag'zini belgilaydi. Shoir «rizq-ro'zi halol, mangu xalq» farzandi ekanidan iftixor hissini tuyadi. «Azal bulbullarga oshyon» bo'lgan ona zamin «bog'larini bosgan qarg'alar ketgani»dan, yurtga sohiblik asl egalariga muyassar bo'lganidan quvonadi. Mana bu misralar ana shu quvonch izhori o'laroq, yaralgan:

Amir Temurlardan qolgan nomus-or,
Bir siniq g'ishti ham sharaf-shon, yurtim.
Sen - o'lmas g'urursan, so'nmas iftixor,
Suvi ham, qumi ham zarafshon yurtim...

Vatan haqida yozmagan birorta ham shoir bo'lmasa kerak. Lekin Sirojiddin Sayyidning bu mavzudagi bitiklari, salaflari va zamondoshlari nazmini

takrorlamaydi. Mana bu misralar ham fikrimizni tasdiqdaydi:

Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni,
Qushning ham bek bilan bekasi bordir.
Singiljon, ekaver rayhonlaringni –
Egasi bor yurtning – ertasi bordir.

“Yozuvchi asarda ilgari surgan asosiy g‘oya leymotiv deyiladi. Asosiy g‘oya, aytganimizdek, asarning butun badiiy to‘qimasidan kelib chiqadi. Shu sababli har bir obraz, har bir tafsilot muayyan g‘oyaviy vazifani bajaradi”¹⁶. Sirojiddin Sayyidning aksariyat asarlari leymotivini Vatanparvarlik, Yurtsevarlik tashkil etadi. Vatan mavzusida she‘r bitib, yurt manzaralarini chizar ekan tuproq tandir, yog‘och so‘ri, tog‘- u qirlar, chinorlar- u minorlardan oddiy xasgacha umumlashma xarakter kasb etadi.

Xalqni sevgan va bor mehr- u muhabbatini ayamagan insonni xalqi ham sevadi, ardoqlaydi. Sirojiddin Sayyid tom ma‘noda yurt oshig‘i.

“Sirojiddin Sayyid dardli shoir, – deydi f.f.d. Nurboy Jabborov “She‘riyat – ruh ozodligi” nomli maqolasida. – Uning zohiran quvonchli holatning go‘zal poetik ifodasi berilgandek ko‘ringan misralari zamirida ham elning, yurtning g‘amida yashayotgan ko‘ngil iztiroblari sirqib turadi. “Ayvonlari nurga talosh, kayvonisi oy- u quyosh” bo‘lgan Vatan haqida “ko‘zida yosh, yuzida yosh” bilan yozishning sababi shunda.

Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni...

Benihoya jozibali misra. Binobarin, uyning ayvoniga qaldirg‘och qo‘nishi – baxt timsoli. Shoirning she‘rlarida ana shunday ko‘ngilga yaqin, qalbdagi nozik torlarni chertib yuboradigan misralar ko‘p”¹⁷.

Shoir “Turkiston” gazetasiga bergan interviyusida, “Shu bobobog‘lar- u bobotog‘lar menga oq fotiha berdilar, bu suvlar- u jilg‘alardan qalbinga navolar oldim, shoir bo‘lib nimaiki kuy va ohang topgan bo‘lsam, avvalombor, shu

¹⁶ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: “ЎАЖБНТ” Маркази, 2003. – 361 б. 69-саҳифа.

¹⁷ Мустақиллик даври адабиёти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2006. – 287 б. 256-саҳифа.

tuproqdan, shu tog‘-u dashtlardan minnatdorman. Bu bog‘ning katta harflar bilan yoziladigan nomini ham bilasiz: VATAN. Men bir kuychi sifatida jondan aziz shu bog‘ning ko‘rkli, tarovatli bo‘lishiga ozroqqina foydam tegayotgan bo‘lsa – o‘zimni g‘oyat saodatli deb bilaman”¹⁸, - deydi.

Yuqorida biz ijodkorning o‘z dil izhori hamda adabiyotshunoslarimizning ayrim mulohozalari, xolis baholari bilan tanishdik. Bu so‘zlar isboti shoirning har bir she’rida olmosdek yarqirab turadi.

Bahrayn suvlariga chaydim yuzimni,

Nasimlar esdilar iliq, arabiy.

Bir osmon to‘ldirib keldi ko‘ksimni,

Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.

Nafaqat, Vatan mavzusi, balki ko‘ngildagi samimiy tuyg‘ular tarannumida ham shoir muhabbatni vatandan ayro tasvirlamaydi. Inson vatanda kamol topadi. Muhabbat ko‘ngilni Vatan qiladi. Doim Vatan ozod-u obod ekan unda o‘sgan har bir avlodning ko‘ngli muhabbatga mezbon bo‘laveradi.

Shoirni haqiqiy shoirlik darajasiga yuksaltirgan bu shubhsiz –Muhabbat. Uning ko‘ngil surati – orzu ham armonlari, so‘z aytmoq yo‘lidagi rohat-u iztiroblari shu birgina so‘zda mujassam. O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid she’riyatida olmos misol yarqirab turgan jihat ham uning yor-u diyorga cheksiz muhabbati, qalb tovlanishlari Vatan, Ona madhi tarannum etilgan samimiy satrlarda mana men deb turdi.

Ko‘klardagi to‘lin-to‘lin oyday Vatan,

Osmon desam toshqin-toshqin soyday Vatan.

Vatan desam, ko‘z oldimga onam, kelgan,

Onam desam, nigohimda paydo Vatan...

Onaga ehtirom, Vatanga muhabbat tuyg‘usi jo‘sh ursa, Vatanga va onaga bo‘lgan farzandlik burchi tomirlarini jimirlatsa, shundagina har bir insonning ko‘z

¹⁸ Саййид Сирожиддин. Сўз йўли: танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Т.: “Шарқ”, 2008. – 384 б. 364-саҳифа.

oldiga Vatan deganida onasi keladi, Ona deganida esa nigohida Vatan paydo bo‘laveradi. Ha, chinakam vatanparvarlik aslida shunday bo‘lmog‘i kerak.

Bu olamda ona nomiga she‘r bitmagan shoir topilmasa kerak. Agar topilsa ham u shoir emas. Abdulla Oripovning “Garchi barchamiz ham padarmiz biroq, Onadan tug‘ilgan payg‘ambarlar ham” satrlarini o‘qiganimizda, “Bu yorug‘ olamda Vatan bittadir, Bittadir dunyoda Ona degan nom” misralaridagi zalvor har bir farzandni onalarga e‘zoz-u ehtirom ko‘rsatmoqqa da‘vat etaveradi.

Shoir Sirojiddin Sayyid ijodida ham xuddi shu jihat uning “Yaxshilik eskirmagay” (Qirq hadis) turkumidan o‘rin olgan “Jannat o‘rtasidagi eshik” nomli she‘rida insonning ona oldidagi farzandlik burchi, eng ulug‘ vazifasi ushbu “Onalar – jannat o‘rtasidagi eshiklardan biridir, agar xohlasang, o‘sha eshikni qo‘ldan ber yoki uni saqla”, degan hadisi sharif zamirida yaratilgan.

Sen – mehmon, u – mehmon, hammamiz – mehmon,
Dunyo ham bir mehmonxonadir bilgil.
Jannat o‘rtasida ko‘p eshiklar bor,
Ularning bittasi – onadir, bilgil.

Har bir inson bu dunyoda mehmon (foni), – dunyo esa mehmonxona (boqiy)dir. Tiriklik – sinov, hayot – imtihon. Azaldan sinalmoqqa yuborilgan insonni jannatga eltuvchi yo‘llar, jannatga tomon ochilgan eshiklar ham bu dunyoda bunyod etilgan ekan. Mana shu yo‘llardan biri, eng yaqini ham (hadisi sharifda ta’kidlangan) – Onadir.

Hayot insonlarning kelib ketguvchi,
Besh kun tebranguvchi gul beshigidir.
Eng avval onangning qadriga yetgil,
Onalar – behishtning nur eshigidir.

Shoir har bir farzandni “Behishtning nur eshigi”ga kirmog‘i uchun “insonlarning kelib ketguvchi, besh kun tebranguvchi gul beshik” sanalmish hayotda onalar qadriga yetmoqqa, qalb uyg‘oqligiga chorlaydi.

Hoki poylariga sochgil umringni,
O'tmagil dunyodan yuraging dog'liq.
Bu eshik sen uchun ochiq bo'lgaydir
Va yo yopiq bo'lgay – o'zingga bog'liq.

Ilohim behishtning nur eshiklari barchamizga ochiq bo'lsin! Mehr-u muhabbatga limmo-lim yuraklarimiz bu dunyoda aslo nadomat-u armonlar bilan dog'li bo'lmasin. Munis va mehribon onajonlarimizning hoki poylariga mehrimizni poyandoz etib yashash saodati har birimizga nasib etaversin.

I. 3. Sirojiddin Sayyid she'rlarida qaldirg'och timsoli

Sirojiddin Sayyid she'rlarini o'qir ekanmiz, bolaligi o'tgan makonlar tasviri, hovli, bohavo ayvon, so'ri, tuproq tandir, ota uyning devorlari, tog'-u daryolari, bobosining chaylasi-yu, bug'doymaysadan tortib bobochinorlargacha rango-rang tovlanib, o'z sehr-u tarovati bilan insonni bolalikka tomon chorlayveradi.

Shoirning "Ilinj", "Vatanni o'rganish", "Vatan yodi", "Vatan", "Ustodi avval", "Vatan abadiy", "Egasi bor yurt", "Vatan nadir", "Bu sening uyingdir", "Vatan desam", "Ona yurt", "Iftixor" kabi she'rlari har bir kishining qalbida Vatanga muhabbat, Vatanni sevish va ardoqlash, uning ertasi uchun mas'uliyat tuyg'ularini mavjlantiradi.

"Bu muhabbat bog'ida", "Muhabbat koshonasi", "Sevgi" va boshqa ko'plab she'rlarida sevgi, muhabbat, oshiqlik singari samimiy tuyg'ular jozibasi go'zal satrlarda jilvalanadi. Shoir she'rlari qanday mavzuda bo'lmasin hammasida milliy va umuminsoniy tuyg'ular, qadriyatlar tarannum etiladi. Hikmat durdonalari bo'lib aqlu shuurimizni ma'nolar javohiri bilan to'lg'azib, ko'ngillarimizni munavvar etib, qalb ko'zimizni nurafshon aylaydi.

Sirojiddin Sayyid she'rlari rang-barang obrazlarga, turfa xil detallarga, go'zal tasviriy ifodalarga boy bo'lib, she'riyatning turli janrlari, she'riy san'atlarning ko'plab namunalarini topa olamiz. Bahor nasimi yanglig', Surxon tog'laridan milliy adabiyotimiz bog'iga yalpiz-u gullar iforini olib kirgan shoir she'rlarida qaldirg'ochlar timsoli ham alohida o'rin tutadi. Bu fikrlar isboti sifatida shoirning 2005-yilda nashr qilingan kitobi "Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni" deb nomlangani ham alohida e'tiborga molik. Shu o'rinda shoirlar mehnatini qaldirg'ochga qiyos etgum keladi: qaldirg'och poloponiga ozuqa tashigani singari, shoirlar ham she'riyatga tashna qalblarga she'r ulashadi.

"Mening she'rim nima?" deb boshlanuvchi ushbu she'rini o'qir ekanmiz:

Mening she'rim nima?

Qaldirg'och ohi.

Maysadek singlimning

Shabnam nigohi.

... ..

Qancha bog‘ dilimdan

Ko‘charda ketar.

Qaldirg‘och ham bir kun

Ucharda ketar.

Lirik qahramon “shoir”ning o‘z she’rlariga talabchanligi, kamtarinligini ko‘rish mumkin. Bunda shoir she’rlarini “qaldirg‘och ohi”ga qiyoslaydi. “Tahlil va tahrir” she’rida esa shoir fikrlarining yangicha talqinini ko‘ramiz:

Men o‘ylayman qaldirg‘ochlar g‘uj bo‘lishib,

Bir biriga ismim aytib guring bersa.

Qalamqoshlar uzun tunlar she’r so‘ylashib,

Kipriklarin qatoridan o‘rin bersa.

Ushbu she’rda “qaldirg‘ochlar” timsolida shoirning muxlislarini anglash mumkin, yoki qaldirg‘och rangi timsol qilib olingan bo‘lsa oq-qora rangdan “yaxshi-yomon” kishilar nazarda tutilayotganini ko‘ramiz. Shoirning “Egasi bor yurt” she’rida quydagicha:

Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni,

Qushning ham bek bilan bekasi bordir.

Singiljon, ekaver rayhonlaringni,

Egasi bor yurtning – ertasi bordir,

deya insonlarni bag‘rikenglikka chorlaydi. Har bir insonni tabiatni sevish, bunyodkorlik, yurtning ertasi uchun fidoyilik, mas’uliyat kabi insoniy xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

“Toshkentga bag‘ishlovlar” turkumidan quyidagi to‘rtlikda g‘oyat go‘zal o‘xshatish va husni ta’lil ko‘zga tashlanadi:

Dunyoda eng aziz ko‘z-u qoshlarday,

Har bir hovling menga qarindoshlarday.

Ko'nglimni ming bo'lib olamga sochsam,
Bunga qaytib kelgay qaldirg'ochlarday.

Ushbu she'rda qaldirg'och Toshkentga, Toshkent timsolida Vatanga bo'lgan muhabbatni ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Inson ko'ngli bilan qaldirg'och qiyosida olam ma'no bor.

Shoirning "Sog'inch" she'ri akaning singlisiga maktubi shaklida yozilgan. Adabiyotimiz xazinasida maktub shaklidagi she'rlarning go'zal namunalari ko'plab uchraydi. Biz e'tiborimizni she'rdagi qaldirg'ochga qaratmoqchimiz.

Bahor payti asta silkinib,
Tuyg'ularing ko'targanda bosh.
Qutlar seni birinchi bo'lib
Erta kirib kelgan qaldirg'och.

Yuqorida keltirilgan bandedagi qaldirg'ochga majoziy timsol deb qarash mumkin. She'rdan umumiy xulosa o'nni tamomlayotgan singil shaharda o'qishi emas, balki chin baxtini kutishi kerak degan mazmun kelib chiqadi. Bunday xulosaga kelishimizda she'r yozilgan yillar (1978) ayniqsa diqqatga sazovor. Ma'lumki, yaqin-yaqinlargacha qishloq qizlarining shaharda o'qishlari ota-onalar tomonidan ta'qiqlangan. Ular maktabni tamomlab turmush qurushi, yaxshi uy bekasi bo'lishlari uqtirib kelingan. Shundan singilni erta kirib keladigan, birinchi bo'lib qutlaydigan "qaldirg'och", singilning kelajagi, baxti bo'lmish turmush o'rtog'i, nazarda tutilayotganligi ayon bo'ladi.

"Sen yolg'iz emassan", "Qaldirg'och ko'zliklarim", "Asal qizim Nigina" kabi she'rlarda qaldirg'ochlar farzandlar hamda farzandlarga mehr-muhabbatni ifodalaydi.

Siz – qaro qoshliklarim,
Oy-quyosh yuzliklarim.
Qaldirg'och qoshliklarim,
Qaldirg'och ko'zliklarim.

Ushbu satrlarda “Qaldirg‘och qoshliklarim”, “Qaldirg‘och ko‘zliklarim” jumalari shoirning farzandlarini samimiy erkalashi bo‘lib jaranglasa,

Umr bo‘yi mening ketmas bahorim

Qaldirg‘ochim vijir-vijir Niginjon.

Misralaridagi “Qaldirg‘och” otaning o‘z qizalog‘iga qaynoq mehri ifodasi bo‘lib yangraydi.

“O‘rganing” nomli she’rni o‘qiganimizda, shoir, qaldirg‘och chekkan zahmatlarda ham buyuk hikmat borligini teran ilg‘aydi va o‘quvchiga quyidagicha uqtiradi:

Hayot esa goh osh tutar, goh qirmoch,

Suygandan ham, kuygandan ham so‘rar boj.

Shiftingizga kelgan bir juft qaldirg‘och

Tortgan azob-uqubatdan o‘rganing.

“Bahor kelmish” 1999-yilda yozilgan bo‘lib unda quyidagicha misralar mavjud:

Hijronlarga to‘liq she’riy daftarimni

Sen varaqlab shamol meni axtardingmi?

Bir boychechak, bir qalamqosh qaldirg‘ochga

Almashdim men bor alam, bor dardlarimni.

“Bahor Surxondan boshlanar” 2002-yilda yozilgan, asar quyidagicha yakunlanadi:

O, hayot! Men senga

Tarmashganim rost.

Sen bilan rang-u bo‘y

Talashganim rost.

Sening bor ayriliq,

Hasratlaringni

Bitta qaldirg‘ochga

Almashganim rost.

Biz yuqorida ikkala she'ring ham yozilgan yillarini qayd qilib o'tdik, bundan ko'zlangan maqsad ikki she'rdagi ostiga chizib ajratilgan jummalarni taqqoslash, hamda shoir ijodining tadrijiy o'sishini ilg'ashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchiga ikki she'rdagi ajratib ko'rsatilgan tafakkur durdonalari mutanosibdek ko'rinsa-da, yangicha ma'no-mazmun ifodalashi bilan betakrorlik vujudga kelgan.

Yuqorida Sirojiddin Sayyidning ayrim she'rlaridagi qaldirg'ochlarga e'tibor qaratdik, xolos. Bulardan tashqari shoirning "Bahor", "Vatan yodi", "Ustodi avval", "Vatan", "Sham", "Marsiya", "Pushaymon ayvonida", "Bir muhabbat qissasi", "Bolalik qaytmadi" "Qushlar olami" singari she'rlarida ham qaldirg'ochlar baland-baland parvoz qiladi. Shoirning beshigini tebratgan qaldirg'ochlar hatto, uning to'ylarida xizmat qiladi. Ba'zan sal-pal ezmaroq kelsa, ba'zida qabog'iga in quradi.

I. 4. Sirojiddin Sayyid she'rlarida armon tasviri

Shoir ijodida “armon”ning poetik tasvirini ko‘rishdan avval “Armon nima?” degan savolga javob izlab ko‘raylik. Muhammad Yusuf ta’biri bilan aytganda “Armon ham bir ehtiyoj” (“Qora quyosh” doston), yoki Ravshan Fayz aytganidek “Armon nishoniga tegmagan o‘qdir” (“Qishloq”).

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “armon” forsha so‘z bo‘lib, kuchli istak, orzu ma’nosini anglatadi. Armon (ارمان) so‘zi tilimizda izohlanar ekan, uch xil ma’noda qo‘llanilishi quyidagicha: “1. Ko‘ngilga tugilgan, lekin (hali) yuzaga chiqmagan, amalga oshmagan orzu niyat... 2. Ko‘ngilga tugilgan orzu-niyatning ro‘yobga chiqmasligidan afsus-nadomat... 3. Armon qilmoq. Amalga oshmagan orzu-niyatdan afsuslanmoq”¹⁹ bayon qilingan. Demak, armon so‘zining uchta lug‘aviy ma’nosi bor ekanligi, obrazli aytganda uchta ma’no rangida ifodalanishi oydinlashadi.

Ma’lumki, rangtasvir san’atida uchta rang muhim o‘ringa ega: qizil, ko‘k va sariq. Bu uchta rang boshqa ranglarning hosil qilinishiga asos bo‘ladi. Uch asos rang bir-biriga qo‘shilishi miqdorining oz-ko‘pligiga qarab yangi-yangi ranglar hosil qilinadi. Ushbu ranglar doirasida birinchi rangdan ikkinchi rangga o‘tish oralig‘ida ko‘plab ranglar paydo bo‘ladi.

Sirojiddin Sayyid she'rlarida ham ranglar xalqasida hosil qilinganidek, armon yangicha ma’no-mazmun kasb etib boradi. Insoniy tuyg‘ular tarannumida lirik qahramon: ba’zan shoir, ba’zida esa xalq, millat armonlari dildan she’rga she’rdan dilga ko‘chib, yangi ma’no ranglarida namoyon bo‘ladi.

Shoirning “Dunyo masali” she’ridagi quyidagi misralar kishini e’tiborsiz qoldirmaydi:

Nechun sevinchlaring bir xil, ay dunyo,

Nechun armonlaring bunchalar rangin.

Shoirning dunyoga murojaati, ritorik murojaat, ritorik so‘roq hamda matn ichida “sevinchlaring”, “armonlaring” so‘zlarining qarama-qarshi qo‘yilishi tazod

¹⁹ “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”, II том, Т.: 2006. 99-бет.

san'atini vujudga keltirib, insonni falsafiy mushohadaga chorlaydi bu esa shoir mahoratining bir qirrasini ochmoqqa imkon beradi.

Adabiyotshunos N. Rahimjonov e'tirof etganlaridek "Uning (Sirojiddin Sayyidning – M.M.) eng suygan va sadoqatli mavzusi – bu Vatan. Ona yurt shon-u shavkati, sarvati, hurriyati haqida so'ylaganda ichiga sig'may ketadi. To'lib toshib she'r aytadi", "Sirojiddin Sayyid she'rlarini o'qiganingizda u haddan tashqari rostgo'y va haqiqatchi shoir degan fikrga kelasiz"²⁰. Shoir Vatan haqida she'r aytganida ham haqiqatni kuylaydi. She'rxonni haqiqatni anglashga da'vat etadi:

Bobo qirlardagi bir xas yo tikan
Shu ham kimlargadir zo'r armon ekan.
Ko'p ekan zar topib, zor bo'lib yurgan,
Vatan qolar ekan Vatan abadiy.

Ushbu badda bobo qirlardagi bir xas, tikanning ham kimlar uchundir zo'r armon ekanligi haqqoniy badiiy ifodasini topganligini ko'rish mumkin. Nafaqat bir band, balki "Vatan abadiy" she'ri mazmunida haqiqat, rostgo'ylik bor bo'y-bastini ko'rsatib turibdi.

Haqiqatparvar shoir armonlari "To'polondaryo bilan xayrlashuv" dostonida, ayniqsa, e'tiborga molik. "Tavallo"da lirik qahramon "O'zing armonimga obi hayot ber", "To'g'on"da "Qurg'oqchil zamonlar kamchil davronlar, Qat-qat armonlar hammasi to'g'on". "Ustuvor ustunlar siz nima deysiz? Nega jim turibsiz bitmagan shiftlar? Chala xonalarda armonim mening Bog'otlarda esa dardlarim qishlar" bandi, hamda doston xotimasidagi misralar xalq armonlari bilan hamohang yangraydi, birgalikda uyg'unlik kasb etadi.

"Mehmon" she'rida esa:

Muhimi hech kimni o'ksitmadim men,
Ko'ksimda bearmon ulg'aydi armon.
Zaminning serne'mat dasturxonida

²⁰ Раҳимжонов Н. Мустиқиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: "Фан" 2007.

Ona, Siz mehmonsiz,

Men ham bir mehmon.

Lirik qahramon shaxsining kuchli samimiyati, hech kimni o'ksitmasligi natijasida uning ko'ksida hattoki armon ham bearmon ulg'ayadi. Zaminning serne'mat dasturxonida ona ham farzand ham mehmon. Inson toki tirik, bu dunyoda mehmon ekan, barcha ne'matlardan totmog'i muqarrar. Serne'mat dasturxonda achchiq-chuchuk hamma narsa bor. Bular shodlik-qayg'u, orzu-armon, sevinch-u g'am barchasi bisyor degan xulosaga kelamiz.

Shoirning "Mensiz yasholmaydi mana bu qalam..." deb boshlanuvchi she'riga e'tibor qaratsak, azob, armon, qayg'u, anduh, g'am singari tuyg'ular tasvirlanar ekan, tanosib san'atidan foydalanib, mazmunni banddan-bandga tadrijiy rivojlantirib boradi. Azobni o'ziga "eng sodiq do'st" deb bilgan shoir ma'no rangini quyuqlatib, "qari sadoqatli kuchuk singari men bilan birgadir" deydi va bu o'rinda o'xshatish san'ati ko'zga tashlanadi. Keyingi bandda esa armon o'zgacha jonlantirilib tasvirlanadi:

Dillar diyoridin quvg'in qush yanglig'

Menga o'rgangandir bu armon yomon.

Men unga qonimdan suv ichirgayman,

Ko'zim gavharidan bergaydirman don.

Bulardan tashqari shoirning "Bolalik" she'rida "Mayus armoni ko'zlarida" qolsa, "Surxon. Saraton"da "Qadim Baqtriya tepalarida maysalarning armon yanglig' qovjirab borishi" aytiladi. "Boysun qo'shig'i"da "qahramon yuragida armonlardan dog'lar bor, bu dog'lar insonni dog'laydi (kuydiradi) ana shunday mahal boshni olib tog'lar tomon ketging keladi". "Shukuh"da esa "neki armon, neki orzu, bari yakdil, ajib taqdir bo'lib tuyiladi".

Shoir she'rlarida armon kuchli va yorqin ranglarda o'z aksini topib boradi. Kamalakrang tuyg'ular turfa ma'no ranglarida jilolanadi. Goh shoir, goh lirik qahramon ba'zan millat, xalq armonlari uyg'unlashib, she'riy san'atlar bilan ziynatlangan holda yetuk badiiy qiymat kasb etadi.

II BOB.

DOSTONCHILIKDAGI IZLANISH VA NOVATORLIK.

II. 1. Sirojiddin Sayyid dostonlari

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid nafaqat she'riyatda, balki dostonchilikda ham bir qator dostonlari bilan tanilgan ijodkordir. Professor Sh.Hasanov "Doston tarkibi va tabiati" nomli monografik tadqiqotida dostonlarda tasvir turlari, xususan, keyingi davr dostonchiligidagi lirik kechinma tasviri haqida fikr yuritib, quyidagilarni qayd etadi: "muallif shaxsiyatining doston markazida mustahkam o'rnashishi janrning barcha tizimlarini, jumladan, uning qurilish xarakterini ham belgilaydi. Muallif shaxsiyatining asar markazini tashki etishi esa lirikaning asosiy belgisi ekanligi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan.

Lirika unsurlari, epik parchalar va dialog ko'rinishidagi dramatik manzaralar bilan yaxlit bir butunlikda zamonaviy dostonlarning murakkab qiyofasini gavdalantirmoqda"²¹.

Yuqorida ta'kidlangan xususiyatlar Sirojiddin Sayyid dostonlarida ham yalt etib ko'zga tashlanadigan jihatlardan biri sanaladi. Uning "To'polondaryo bilan xayrlashuv", "Bahor Surxondan boshlanar", "Xotira" hamda "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur..." dostonlari ana shunday lirik kechinma tasviri yetakchi ekani bilan muhim ahamiyatga ega.

"To'polon daryo bilan xayrlashuv" dostoni 1985-1986-yillarda yaratilgan bo'lib, davr-u zamonlar, manzil-u makonlar, inson umri mazmuni, tabiat va jamiyat, odam va olam aro mushtarak munosabatlar haqida shoirning otashin kechinmalari ifoda etilgan. Asar publitsistik ruhda xotiralar zamirida yaratilgan.

"Badiiy tasvir vositalari asar tilining shirali, bo'yoqdor, rang-barang bo'lishiga yordam beruvchi omillardandir. Bu xususiyat she'riyatda yaqqol seziladi. Chunki lirika tabiatidagi ixchamlik, siqqlik ko'chma ma'no tashuvchi

²¹ Hasanov III. Doston tarkibi va tabiati. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2011. -230 b. 9-sahifa. II bobda tayanч манба сифатида ушбу монографиядан фойдаланилганлиги учун кейинги келтирилган иктибослар саҳифаси кавс ичида берилади.

badiiy tasvir vositalariga ko‘proq ehtiyoj sezadi. Zamonaviy dostonlarimiz tabiatida ham bu xususiyat kuchaymoqda. Dostonning lirik, liro-epik, dramatik ko‘rinishlarida badiiy tasvir vositalarining maqomi har qachongidan kuchaydi. Tasvir vositalarining quyuq qo‘llanishi murakkab kechinmalar tasvirini chizishda, rangin ruhiy holatlarni sinqiq va aniq ifoda etishda qo‘l kelayapti. Doston tilidagi lokonik xususiyat bo‘rtib ko‘rinmoqdaki, bu ham lirik qurilish alomatidir. Lirikaga xos takrorlar, qaytariqlar, takrorlar, intonatsiyalar, ritorik so‘roq va murojaatlar ham lirik “men”ning dostoniy qiyofasini yaratishda muhim rol o‘ynamoqda”(18-sahifa).

Sirojiddin Sayyidning “Bahor Surxondan boshlanar” dostoni vatan suratini chizishda yuqorida ta’kidlangan tasviriyy vositalardan unumli va o‘rinli foydalanganligini kuzatish mumkin. Dostonda muallifning sog‘inchlari, kechinmalari yorqin bo‘yoqlarda aks ettirilgan. Asar quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Olamda sog‘inchlar
Naqadar bisyor,
Har bir sog‘inchning ham
O‘z rang, tusi bor.
Har yil “Axborot”da
Bir xabar takror:
“Bodomlar gulladi –
Surxonda bahor”.

Asarda Surxon tabiati va odamlari xarakteri tasviri misolida o‘zbek xalqi ma’naviy qiyofasi yaratilgan bo‘lib, yurtimiz tabiati go‘zalliklari tarannum etiladi.

“Xotira” dostoni alohida qurilishga ega. Doston hayotning xilma-xil muammolari, uzoq va yaqin kechmishning achchiq saboqlari, inson tabiatining tushunish va tushuntirish qiyin bo‘lgan sir-u asrorlari, shaxsning Vatan va millat oldidagi mas’uliyati, burchi kabi masalalarda bahs yuritadi, hayotga, xalq taqdiriga ochiq ko‘z bilan qarashga undaydi, mudroq tuyg‘ularni bedorlikka chorlaydi.

O'tgan asrning 70-80-yillari dostonchiligida xabar, reportaj, etyud kabi adabiy-publitsistik janrlar doston tarkibidan joy ola boshladi. O.Matjonning "Gaplashadigan vaqtlar", "Cho'ldagilar", M.Yusufning "Qora quyosh", "Ko'hna quduq", I.Otamurodning "Muin Bisus monologi" kabi qator asarlari misolida doston janrining voqelikni o'ziga xos qamrab olish chegaralari, tasvir imkoniyatlari publitsistika hisobidan kengayganligining guvohi bo'lish mumkin. Bu ijodkorlarning o'sha yillarda matbuot sohasida ishlaganliklarini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur diffuziya jarayonining yanada qonuniy asoslarga egaligi tasdig'ini topadi.

Keyingi yillarda, ayniqsa, istiqlol sharofati bilan tarixga, qadimiy qadriyatlarga, jumladan, tarixiy shaxslar hayotiga qiziqish bir qadar ortdi. Shunday siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Adabiyotimizda Bobur shaxsiyatiga bag'ishlangan talay she'rlar bilan bir qatorda yirik epik va lirik dostonlar ham yaratilmoqda. Ana shunday dostonlardan biri Sirojiddin Sayyidning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostoni hisoblanadi.

Sirojiddin Sayyidning dostonnavislikdagi yutuqlari o'ziga xos izlanish va novatorligi uning Bobur hayotiga bag'ishlangan dostonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu doston xususida keyingi bo'limda batafsil to'xtalamiz. Shoir yaratgan dostonlarida tarix va bugun, insoniyat kechmishi va kechinmalari talqini, umr mazmuni, tiriklik falsafasi keng qamrovli mushohada etiladi.

II. 2. Hozirgi o'zbek adabiyotida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yaratilgan dostonlar

Hozirgi o'zbek adabiyotida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida nasrda ham, nazmda ham anchagina asarlar yaratildi. Shu jumladan dostonchilikda ham Bobur shaxsiyatiga bag'ishlangan bir nechta doston mavjud. Asqar Mahkamning "Tavajjuh" dostoni syujeti Bobur o'ylari, xayollari asosiga qurilgan bo'lsa, To'lan Nizomning "Uch so'z" dostonida liro-epik voqeabandlik asosida tasvirlanadi. Shular qatoriga Sirojiddin Sayyidning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostonini ham kiritish mumkin.

An'ana va novatorlik xususida adabiyotshunos E.Xudoyberdiyev quyidagi fikrlarni qayd etadi: "Yozuvchining o'z o'tmishdoshlari bilan bo'lgan an'anaviy aloqasini va ijodidagi yangi belgilarni ya'ni novatorligini aniq tasavvur etish nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Buni aniq idrok etmay turib, mazkur yozuvchining adabiyot tarixidagi o'rnini ham, adabiy jarayondagi rolini ham to'g'ri tushunib bo'lmaydi. Yangilik yaratolmagan shoir novator bo'la olmaydi. Yangiliksiz an'ana yo'q, an'anasiz yangilik yo'q". Shunday ekan, biz ushbu bo'limda Sirojiddin Sayyidning dostonchilikdagi an'anasi va novatorligi haqida ma'lum xulosaga kelish maqsadida unga qadar yaratilgan Bobur shaxsiyatiga bag'ishlangan dostonlarga ham bir nazar tashlamoqni lozim topdik.

"Tavajjuh"da Bobur ruhiyati keng ko'lamda izchil va mantiqan o'z ifodasini topadi. Asqar Mahkam Bobur hayoti va faoliyatining tarixiy sanalariga emas, balki uning psixologiyasiga, ruhiyat manzaralariga e'tibor qaratadi.

Topmadim qonimga belab ilkimni,
Artaman ko'ksimdan ishqning dog'larin.
Ashoblar jasadin chuqurlarida,
Chumoli izlaydi dil ushoqlarin.

Boburning barcha lirik asarlarida "Boburnoma"da insoniy dard va iztirob, inson qismatining chigalliklari, mahzun ko'ngilning samimiy izhori balqib turadi. Shu ruh, shu pafos "Tavajjuh" dostoniga ko'chgandek taassurot qoldiradi. Shoh va

shoir Boburning ruhi bezavoli tilga kiradi. Xarakterining yangi-yangi qirralari ochiladi.

“Tavajjuh”dagi Bobur timsolida bandalikka bo‘ysungan aftoda shoh, umrining oniy kayfiyat yanglig‘ omonat, ajib tush misoli o‘tkinchiligini anglab yetgan shoir kulox, kachgul va chorig‘idan bo‘lak hech vaqosi bo‘lmagan darvesh, insoniyat tarixiga tafakkurning sovuq ko‘zlari bilan boqayotgan faylasuf, judoliklar va ayriliqlardan zada va ozurda bo‘lgan ko‘ngil faryod chekadi, nola qiladi, tavallo aytadi, o‘tinadi, o‘kinadi,

Yo, Rabbiy, tog‘larning qorlari kuysin,
Buloqlar charaqlab oqsinar kuyi.
Qushxona poyida yashagan itdek,
Boburing bu olam haqidan to‘ydi.

“Tavajjuh” asos e‘tibori bilan lirik doston bo‘lsada, unda Bobur o‘ylarining, andishalarining, kechinmalarining epik va dramatik keng qamrovli asar tabiatini tayin etadi. “Tavajjuh” dostoni shaklan lirik, mazmunan dramatik, mantiqan epikdir.

Lirik tilning lakonik xususiyati ko‘chma ma’no tashuvchi badiiy tasvir vositalarining faol qo‘llanilishi, mazmunning falsafiy salmoqdorligi asar syujeti uchun dramatik asosning tanlanishi dostoniga alohida shukuh bag‘ishlagan, Bobur Mirzoning betakror xarakterini tiklashga imkon bergan.

Adabiyotimizda Bobur haqida anchagina prozaik asarlar yozildi. Bu asarlarning yaratilishida “Boburnoma”, “Humoyunnoma” kabi memuar bitiklar muhim manba vazifasini o‘tadi. Biroq Boburning lirik siymosi ilk bor “Tavajjuh” dostonida o‘zining ravshan ifodasini topdi.

To‘lan Nizom dostonchilik borasida katta tajribaga ega ijodkor. Uning qator she‘riy qissa va dostonlari iliq kutib olindi. Biroq “Uch so‘z” dostoni xususida bunday deyish qiyin. Shoir dostonida Boburning tug‘ilishidan tortib, so‘nggi yilgacha bo‘lgan ayrim voqea-hodisalarni, ertaknamo rivoyatlarni qamrab oladi. “Uch so‘z”da ham u boshqa dostonlarida bo‘lgani kabi turli xil she‘riy

shakllardan foydalanadi. Ammo doston markazida turgan syujet voqealari tarix elagidan o'tgan hodisalarning quruq bayoni bo'lib qolgan.

Bir mavzuga bir necha ijodkor murajaat qilishi mumkin. Lekin har bir asar o'zicha betakror bo'lmog'i, mavzuning boshqalar ilg'magan o'zga qirralarini kashf etmog'i lozim. To'g'ri, dostonda ayrim-ayrim xillarda uchrab turadigan ajoyib lirik kayfiyat tasvirlari mavjud. Biroq bu tasvirlar mustahkam asosga ega bo'lmagan voqealarning sayozliklarida yo'qolib ketadi. Har qanday badiiy asar ehtiros va samimiyat mahsuli bo'lganidagina kitobxon qalbiga yo'l topadi. Bizningcha "Uch so'z" dostonidagi poetik asos shoir qalbida yetilmasdan yozilgandek taassurot qoldiradi. Shu bois asardagi obyektivlashtirilgan xarakterlarning xatti-harakatida, o'ylarida sun'iylik, zo'rma-zo'rakilik seziladi.

Shoir dostonda Boburning Afg'onistondagi hayotiga Bubna ismli qiz bilan bo'liq bir rivoyat keltirib o'tadi. Asarning ancha qismini egallagan bu tasvir axborot tarzida yozilgan maqolaga o'xshab ketadi. Cho'pchaknoma bu tasvir o'rniga shoir Bobur ruhiyati manzaralariga e'tibor qaratganida asar emotsional ta'sir kuchiga ega bo'lar edi.

Xush keldingiz aziz mehmon,
Sizni kutib ko'z nigoron.
Quchoq ochar ahli Afg'on,
Qadamingiz bosh ustina.

Afg'on xonining qizi Boburni mehmon sifatida kutib olishi asarda bachkanalikni, yolg'onni vujudga keltiradi. Agar shoir tarixga xranologiya, geografiyaga ochiqdan-ochiq qarshi borsa bu uning o'zi yaratgan san'atiga qarshi borganligidir. Bu shoirning asari uchun halokat demakdir. Muxlislar bu holni shoirni umuman hurmat qilmaganliklaridagina kechirishlari mumkin.

"Badiiy asarda bosh qahramon asarning asosiy g'oyasi va umumiy ruhini pafos darajasida ushlab turishi lozim. Yo'qsa asar pafosiga ham, qahramon jozibasiga ham putur yetadi" –deb yozadi adabiyotshunos B.Nazarov.

Asardagi poetik g'oyaning pishib yetilmaganligi dostonning lisoniy qurilishiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. To'lan Nizom Bobur hayotini to'la qamrab olishga intilganligi bois bo'lsa kerak, syujet voqealari tarqoq holda namoyon bo'ladi. Boburning biografiyasi ko'p va xo'p yozilgan. Uning jiddiy janr bo'lgan dostonda qayta bayon etishning xojati yo'q. Boburning hayoti va ijodi "oliy ehtiroslar qurshovida aks ettirishga" arzigulik faktlarga boy. To'lan Nizom ana shu faktlarni saralab yagona bir o'zanga solganida Bobur haqida yangi doston yuzaga kelgan bo'lar edi.

J.Neru aytganidek Bobur dilbar shaxs, bu shaxsning dilbarligini ko'rsatish ijodkordan katta mehnat talab qiladi. Bobur haqida yo'l-yo'lakay yozib bo'lmaydi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan ikki doston ham buni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Albatta dostonnavislikdagi va boburshunoslikdagi muvaffaqiyatlar bilan birga kamchiliklarning bo'lishi tabiiy hol. Bu kamchiliklar ham kelgusidagi ishlarda saboq vazifasini o'tasa ajab emas.

Ijodda "Aql-aqldan quvvat oladi" degan an'ana hukm suradi. Bu degani badiiy ijod - an'ana va novatorlik asosida yaratiladi. Zamondosh shoirlar qadimdan hozirgi davrgacha yashab ijod etgan jahon ijodkorlari asarlarini o'qib ilhomlanadilar. Shoirona fikriy kashfiyotlar kitobxon - shoir qalbiga, aqliga, tafakkkuriga ta'sir etib, ilhom bulog'ini junbushga keltiradi.

Buyuklardan ilhomlanish yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratilishiga sababchi bo'ladi. Iste'dodi baland Sirojiddin Sayyid ixlos bilan Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburmoma"sini, g'azal va ruboiylarini mutolaa qilgan. Boshqa shoirlar bir asardan bir ilhom uchqunini olsalar, Sirojiddin Sayyid ushbu qomusiy asardan yuzlab marotaba ilhomlangani bilan bizni hayratga soladi.

"Biz, boburshunoslar, Bobur "Devoni" – uning ruhiy-hissiy tuyg'ularining marvarid shodasi, "Boburnoma" - shoh va shoirning kundaliklari, sarguzashtlaridir, der edik.

"Boburnoma" deyarli har bir asrda bir necha marotaba nomini o'zgartirib turganidek (hozirgacha "Boburnoma" 25 nomda atalgani ma'lum. Chunonchi, asli

"Vaqoe'" (voqealar) deb nomlangan bu asarning qo'lyozma va nashrdagi keyingi nomlaridan: "Voqeanoma", "Voqeoti Bobur", "Boburiya", "Tuzuki Boburiy", "Bobur esdaliklari"... oxirgilaridan biri "Voqeoti Kobul"), shoir Sirojiddin Sayyid esa "Boburnoma"ning yangi mohiyatini kashf etgan.

Shoh shoirning ohnomasi - "Boburnoma",

Harb-u zarb, janggohnomasi - "Boburnoma".

Firdavsiyning «Shohnoma"si bordir agar,

Turkiylarning shohnomasi - "Boburnoma".

Sirojiddin Sayyid "Boburnoma" - esdaliklar asarining o'zidan she'riyatning qaynoq manba'larini ilg'ay olgan. "Boburnoma" havolarida deb atash joiz bo'lgan bu she'rlarni mutolaa qilar ekanmiz, bu to'plam ahamiyatining ikki qirradi diqqatimizni tortadi:

- birinchidan, "Boburnoma" mavzu hududlarida kezingan bu she'rlar mumtoz adib shinavandalari e'tiborini hozirgi zamon she'riyatiga jalb etadi;
- ikkinchidan, hozirgi zamon adabiyoti ishqibozini mumtoz adabiyotni o'qishga rag'batlantiradi"²²—deb yozadi adabiyotshunos Vahob Rahmon.

Bu she'rlari bilan shoir XVI asr kishilari hayoti, xulq-atvori, baxti va fojiasini bugungi kitobxon uchun yangidan kashf etgan; uslubi qisqalik va lo'ndalikka moyil Bobur talqinlari jo'yaklari ushbu nazmiy ifodalarda sho'x oqar jilg'alarga aylangan; Bobur ko'z qirini tashlab o'tgan voqea-hodisaga zamondosh shoirimiz maxsus to'xtab qaragan va uni to'rt tomondan kuzatib, miniatyur lavhani yirik polotnoga aylantira olgan va bugungi kitobxon uchun muhim axloqiy-g'oyaviy yo'riqlar manzur etgan. Shoir "Boburnoma" nomli to'qqiz bandli she'rida buyuk qomusiy asarni mohiyatan tahlil etib, har bir banddagi fikrlaridan "Boburnoma"ga quyidagidek atamalar beradi:

Qadrnoma, Taqdirnoma, Jabrnoma, Harbiynoma, Kabirnama, Botirnama, Xotirnama, Sabrnoma...

²² Саййид С. Юз оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур// Раҳмон В. "Бобурнома" ҳаволарида. Тошкент: Ўзбекистон, 2010. -160 б. 154-саҳифа.

To'plamdagi har bir she'rgina emas, har bir baytda shoir bir yangi ta'sirchan fikriy kashfiyot manzur etishga urinadi va bunga muvaffaq bo'ladi. "Andijon ko'rinadir" she'rining to'rt baytiga nazar tashlasak, Samarqandni olib, bag'ri qon bo'lib qamaldan chiqqani, ulug' orzusi katta bobosi Amir Temur shaxsi, umidsizlik fojiasi, kelgusidagi falokatlar tahlikasi sharpalari o'ta ta'sirchanlik bilan qalamdan quyilganiga amin bo'lamiz:

Ot chopib yurganlarim yodimga tushsa har zamon,
Qirlarida lolalar bag'rimda qon ko'rinadir.
Ey Samarqand, alvido, osmonlaringni o'ylasam,
Har bulutdin menga bir sohibqiron ko'rinadir.
Bir xazon yaprog'idek men bu diyordin ketmisham,
Ko'zima ikki jahon bargi xazon ko'rinadir.
Tog'laring ham boshima sermar chaqinlardin qilich,
Ey falak, niyatlaring asru yomon ko'rinadir.

To'plamni o'qib turfa kayfiyatlar tuygan kitobxon yengil tortib, "Bobur yozishi kerak bo'lgan she'rlarni Sirojiddin Sayyid davom ettiribdi" deya qoniqadi.

Zamondosh shoirimizning ushbu "Boburnoma" voqealariga o'ziga xos naziralarini bastakorning she'r tanlab, musiqa bastalaganiga ham o'xshatish mumkin. Chunki Sirojiddin Sayyid she'r bag'ishlagan u yoki bu voqeani "Boburnoma"dan o'qigan kitobxon unchalik ahamiyat bermasligi yoki unda bu darajada kuchli taassurot qoldirmasligi mumkin edi.

Vaholanki, bu voqea-hodisalar haqidagi she'rlar o'sha shaxs, kishilar, voqea-hodisa haqida xilma-xil taassurotlar uyg'otadi: jilmaytiradi, kuldiradi, afsuslantiradi... Xullas, turfa hislar olamiga olib kiradi.

Temuriyzoda Boburning "Boburnoma"sida yuz xil mavzu va siyosiy-axloqiy masalalarga daxl etiladi. Shoir sidqidildan yozilgan, mehr va samimiyat bilan bitilgan o'z bag'ishlovlarida kitobxonni buyuk qadriyat sohiblari va milliy qadriyatlarimiz mohiyatini anglashga, shoh va sultonlarimizning millat tarixidagi buyuk shaxsiyatlarini kashf etishga urinadi. Mumtoz she'riyat va adabiyotdan

bahramandlik baxti o'sha matnlardagi nuktani - fikriy kashfiyotni idrok etishdadir. Sirojiddin Sayyid "Boburnoma" havolaridagi she'rlarining har birida qalamga olingan voqea-hodisa yoki shaxs haqidagi mohiyatga kitobxon diqqatini torta oladi. Masalan, Bobur otasi Umarshayx Mirzoning "Shohnoma" va "Xamsatayn" - ikki "Xamsa"ni o'qiganligini aytib o'tadi, xolos. Endi zamonaviy shoirimizning bu xabarning o'zini keltirib, undan yangi fikriy kashfiyot qilganini qarang:

"Shohnoma" o'qiydi Umarshayx Mirzo,

O'qir "Xamsatayn"lar ohnomasini.

Bilmaski, o'z o'g'li aylagay insho,

Bir buyuk millatning "Shohnoma"sini...

Sirojiddin Sayyid ham o'zi ulug'lagan o'zbek "Shohnoma"si mutolaasidan - "Boburnoma"dan ilhomlanib yuzta turli hajmdagi she'rlar va muxammaslar yozgan. Uning Bobur shaxsiga bag'ishlangan dostoni haqida keying faslda batafsil to'xtalamiz.

II. 3. “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...

(Firoq va sog‘inch dostoni)”

Mirzo Bobur Vatandan yiroqlarda chekkan oh-nolalari, qalb qo‘ri va yurak qoni bilan inja bir Vatan yaratdi. U "Boburnoma" edi. Mirzo Bobur "Boburnoma"ni Vatan tutdi.

Bugun "Boburnoma" mutolaasi umumjahon miqyosiga chiqqan. Mirzo Bobur har bir “Boburnoma” o‘quvchisining qalbida o‘z Vatani bilan qolmoqlik saodatini butun hayoti va ijodi bilan kashf etdi va bu muqaddas g‘oyani avlodlarga meros qoldirdi.

Adib va olimlarimiz e‘tirof etganidek, "Boburnoma"shunoslikning go‘zal sahifalari ochilganining guvohi bo‘layapmizki, bunga istiqlool davri safarnomalari ham (mualliflar Xayriddin Sulton, Qamchinbek Kenja) yaqqol misol bo‘la oladi. Mana shu sohaga munosib ulush bo‘lib qo‘shilgan yana bir asar - Sirojiddin Sayyidning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostoni haqida fikr yuritamiz.

Asarda "... mardlik va matonat, g‘urbat-u firoq, mehnat-u alamlarga to‘la umrning yuz lahza, yuz holatini qo‘limdan kelgancha ifodalab berishga harakat qildim"²³, - deb yozadi muallif doston muqaddimasida. U "Boburnoma" sarhadlarini kezib, "har so‘zning rostini bitilgan va har ishning bayoni voqeini" tahrir etilgan holatlarni shoirona qalb ko‘ngil ko‘zlari bilan qayta badiiy idrok etadi.

Har vaqtgi, ko‘rgasen mening so‘zumni,

So‘zumni o‘qub, sog‘ingasen o‘zumni,

deya bashorat qilgan Mirzo Boburning jon o‘rtar she‘riyatining eng nozik nuqtalaridan Sirojiddin Sayyid nuktapardozlik kashf etdi.

An‘anaviy dostonlardan farqli o‘laroq, "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" yaxlit syujetga, ma‘lum bir izchillikka ega emas. Ammo dostonning bir butun voqeaband asar kabi taassurot uyg‘otadigan, ichdan payvandlab-yaxlitlab

²³ Саййид С. Юз оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Тошкент: Ўзбекистон, 2010. Бундан кейин мазкур нашрга мурожаат қилинганда саҳифаси қавс ичида кўрсатилади.

turadigan bir jihati bor. Bu - Sirojiddin Sayyidning e'tiborini tortgan yuz lavha, yuz holatning markazidagi Mirzo Bobur siymosi. Binobarin; yuz holat, yuz lahza ham Mirzo Boburning e'tirofi yoki e'tirozi; muhabbati yoki nafrati; hayrati yoki havasi. U tuygan ruhiy og'riqlar va chekkan alam-iztiroblar ifodasi.

"Eng yaxshi san'at asarlarini vaqti-vaqti bilan takror; sinchiklab ko'rib turmoq zarur, ularda ko'z ilg'amas teranlik yashiringan bo'ladi" - degan edi buyuk Gyote. "Boburnoma"dagi ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan, ammo yurak, qalb bilan his etiladigan teranlikni kashf etgan Sirojiddin Sayyid ma'lumot, kuzatuv darajasidagi matnlarni va ular zamiridagi hayotiy ma'no va tuyg'ularni qayta badiiy idrok etadi. Ularning har biridan Mirzo Bobur ruhoniyyatiga, uning insoniy mohiyatiga yo'l qidiradi. Chunonchi, "Boburnoma"da Mirzo Boburning Hindiston va Qarshida uchraydigan bag'riqora deb nomlanuvchi qushni solishtirib yozgan kuzatuv Sirojiddin Sayyid e'tiborini tortgan: "Yana Hinduston bag'riqorasidur, ul bag'riqoradin kichikroq va inichkaraktur. Bag'rining qorasi ham kamdur. Uni ham andin inichkaraktur"

Jahonda hech kishi men singari ovvora ermasdir,

Biror ko'ngil mening ko'nglim kabi sadpora ermasdir.

Ayo, ey bag'riqora qush, agar bag'ring qarodir, lek

Mening bag'rimdagi dog'lar misoli qora ermasdir (110).

Ma'lumki, "ma'no so'z so'zga urishtirilganda voqe bo'ladi. Zero, so'zning so'zga urilishi - bamisoli bong, uning jarangi tasavvurimizda qandaydir tushunchalar, narsalar, manzaralar, qiyoslarni - bir so'z bilan aytganda, assotsiatsiyalarni; assotsiatsiyalar zanjirini uyg'otadi"²⁴. Sirojiddin Sayyidning "Bag'riqora qush" deb nomlanuvchi bag'ishlovida ovvora, sadpora, bag'riqora, qora sifatlari o'zaro qofiyalanib, she'rdagi poetik ma'no va ohangdorlikni kuchaytirib, ayni paytda, har biri ko'ngilga nisbat berib qo'llanganligi uchun obrazlar assotsiatsiyasini yuzaga chiqarayapti. Metaforik idrok etish orqali o'quvchi Mirzo Boburning bewatanlik, yurt sog'inchi tufayli chekkan iztiroblari

²⁴ Куронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр, 2010. 40-саҳифа.

dostonda bag‘riqora qush timsolida mahorat bilan kashf etilganligiga guvoh bo‘ladi.

"Boburnoma" da 1525-yil voqealari bayonida Mirzo Bobur shunday yozadi: "Oxshom andin ko‘chub, Ali Masjidg‘a tushuldi. Bu yurtning torlig‘idin doyim men bir pushta ustiga tushar edim, cherik eli tamom bir qo‘lda tushar edikim, men tushgan pushta borig‘a mushrif edi. Kecha cherik elining o‘tidin ajab yaxshi chirog‘on bo‘lur edi..."

Bu parchada tepalikda turib, pastda navkarlari yoqqan gulxanning shu‘lasida charog‘on bo‘lib ketgan kechadan zavqlanayotgan Mirzo Boburning tinimsiz ruhiy evrilishlar girdobida birda cho‘kib, birda qalqib borayotgan mardona ko‘nglini ko‘ramiz. Sirojiddin Sayyid ham aynan shu bag‘ishlovini "Ko‘ngil" deb nomlagan va bu bilan matnning ma‘nodorligi, ta’sirchanligini kuchaytirgan:

Desam yor-u diyorimdin - xiromon bo‘lgan, ey ko‘nglim,
Sog‘inch-u dard-u yodlardin farovon bo‘lgan, ey ko‘nglim.
Qorong‘u, so‘ngi yo‘q tunlar, uzoq hijronli ellarda,
Cherigim yoqsa gulxanlar - charog‘on bo‘lgan, ey ko‘nglim (112).

Yulduzsiz, oysiz qorong‘i kecha, yorsiz, diyorsiz hijronzada Mirzo Bobur ko‘ngli. Yuqoridagi satrlarda mohiyatgaingan ta’sirchan bir qiyos tasvirga muayyan yaxlitlik bag‘ishlagan. She’rda nurga yo‘g‘rilgan iztirob va Boburga xos nekbinlik bor. Eng muhimi, shoir sinchi ijodkor sifatida real voqelikni badiiy voqelikka aylantirish jarayonida Mirzo Boburning mardona xarakterini ko‘rsata olgan. Har qanday jangu jadallar saltanat dag‘dag‘alari ortidagi qon to‘kishlar, muntazam ot ustida; qo‘lida qilich-qalqon-u, egnida temir sovut bilan ham o‘zining yoniq yuragini, shoir ko‘nglini saqlab qololgan nazokatli Mirzo Bobur qalbidagi favqulodda bir hayotsevarlik yorqin ifodalangan. Shoir qalbidagi tiriklik shukronasi shu qadar baravjki, qayta-qayta taqdir zarbalaridan yerparchin bo‘lib ketgan Mirzo Bobur yana matonat bilan qad rostlashga o‘zida kuch-qudrat topadi. Birgina misol: Fasllar tarovati Mirzo Bobur nazmida ayricha latofat va muzayyanlik kasb etadi. "Bahor ayyomidur dog‘i yigitlikning avonidur" yoki "Yoz

fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatini" deb boshlanuvchi g'azallarning matlasidayoq ko'ngilni orziqtirib yuboradigan surur, ma'no va zavq bor.

Sirojiddin Sayyidning diqqatini tortgan kuz fasli manzaralari "Boburnoma"da quyidagicha tasvirlanadi: "... tonglasi Bog'i Vafog'a keldim... sahnalari tamom se bargazor; anor daraxtlari sap-sarig' xushrang xazon bo'lubtur... Dushanba kuni xazon sayrig'a Istalifg'a borildi... Namozni digar bo'la Behzodiyg'a kelduk. Xazonlar asru xo'b bo'lub edi... Xoja Shihobg'a tushub uyquladuk. Xeyli yaxshi xazon edi...".

"Xazon sipohi" (Navoiy) – kuz hukmidagi tabiat Mirzo Bobur qalamida shunchalar mohirona aniqlik bilan chizilganki, beixtiyor oltin tusga kirgan Bog'i Vafog' xoki poyida yotgan "sap-sarig' xushrang xazonlarning sirli shiviriga quloq tutib, xayollar og'ushida bir-bir odimlab ketayotgan Mirzo Bobur ko'z o'ngimizda gavgdalanadi. Shu onda Javoharlal Neruning: "U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi" -degan so'zlari yodimizga tushadi.

Darvoqe, Sirojiddin Sayyidning "Boburnoma"dan keltirgan ko'chirmasida yana shunday tasvirlar borki, bu Neruning Mirzo Boburga bergan ta'rifining ayni haqiqatligini isbotlaydi: "... Istarg'achning oyog'idagi podshohiy bog'ini sayr qilildi. Bir olma niholi yaxshi xazon bo'lub edi, har qaysi shoxida besh-olti barg siyoq bila qolib edi andoqkim, agar naqqoshlar takalluf bila tortsalar oncha torta olmag'ay edilar..."

Mirzo Bobur o'z umri g'unchasini xazon yaprog'iga almashtirgan olma daraxtining ko'rk-u tarovatiga qarab, musavvir tabiatning san'atiga qoyil qolar ekan, bu zarif holatni qog'ozga tushira oladigan rassomning mahoratiga ham shubha bilan qaraydi. Ruhshunoslar o'ziga ishongan va umid bilan yashaydigan insonlar sariq rangga intiladilar²⁵, deydi. Beixtiyor Bog'i Vafoni kezib yurgan Mirzo Boburning "daraxtlari sap-sarig' xushrang xazon bo'libtur" degan e'tirofi orqali buyuk shoir ruhiyatining yana bir qirrasini kashf etgandek bo'lamiz.

²⁵ Тимсоллар тилсими (Рамз, белги ва тимсоллар тасвири). Тузувчи Дилрабо Мингбоева. Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. 117-саҳифа.

"Bobur o'z memuarida zohiriy safar, sarguzasht va kurashlarini bayon etgan. She'rlarida esa u ko'ngil va ruh sayohatiga daxldor ma'no hamda tuyg'ularni tasvirlab beradi"²⁶, - deydi taniqli adabiyotshunos Ibrohim Haqqul. Shu asnoda bir muddat nosir Mirzo Bobur xuzuridan shoir Mirzo Bobur ko'ngil mulkiga xayolan qaytaylik:

Xazon yafrog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim.

Butun she'riyati sog'inch va iztirobning samimiy ifodasi sharhidan iborat bo'lgan Mirzo Bobur lirikasida "yor" "diyor" "ko'ngil" faol timsollar sanaladi. Shoirning deyarli barcha g'azal va ruboiylarida tez-tez takrorlanadigan bu timsollar uning ruhiy olami, ijodining mazmun-mohiyatini namoyon qiluvchi obrazlardir. Bunday poetik timsol va g'amli tashbehlar, E.Vohidov ta'kidlaganidek, Mirzo Boburning og'ir qismatidan, uning Vatandan yiroqda, sog'inch iztirobi bilan kechgan zardobli kunlaridan hikoya qilgandek bo'ladi²⁷. "Gul" "chaman" "latofat gulshani" "xazon yafrog'i" metaforik obrazlar sifatida yurt hajrida o'rtanayotgan Mirzo Bobur tasavvurida tiklangan Vatan, undan ayro yashayotgan shoir qiyofasini anglatadi. O'zga yurtlarda "Vatan topa olmagan, taxt topganda ham baxt topa olmagan" (B.Qosimov) Mirzo Boburning bir oqibatli farzand sifatida o'z diyoriga shunchalar mehr-u muhabbati buyuk ediki, uning doim latofat gulshani bo'lib qolishini, gul, chaman yanglig' ko'rk ochishini istardi: "Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu xurram qol". Shoir o'zini beshafqat umr kuzining qahrli shamollari uzoqlarga uchirib olib ketgan xoksor xazon yaprog'iga qiyoslaydi: "Men garchi dahr bog'idin xazon yafrog'idek bordim".

Sirojiddin Sayyid ham o'zining "Xazon fasli" bag'ishlovida Mirzo Bobur yuragidagi Vatan hasratini teranroq ochishni "xazon" timsoliga yuklaydi. Bag'ishlovga Mirzo Boburning yuqorida keltirganimiz xazon sayli bilan bog'liq xotiralari, kuzatuvi asos bo'lgan. Dostonda shoirning tafakkur yolqini oddiy

²⁶ Хаққул И. Тақдир ва тафаккур. Тошкент: Шарқ, 2007. 314-саҳифа.

²⁷ Вохидов Э. Изтироб. Тошкент: Ўзбекистон, 1992. 272-273-саҳифалар.

hayotiy hodisaga bamisoli shu'la sohib, unga cho'g' tashlagan gulxanga aylantirgan, deyish mumkin. Muallif o'sha cho'g'ni, aslida, shoir Mirzo Boburning otash ko'nglidan olgan.

Bog' xazon-u tog' xazon-u jumlayi olam xazon,
Tildagi nolam xazon-u, dildagi lolam xazon.
Kelgil, ey gul, sen mening fasli xazonrezimni ko'r,
Bo'lmagan olamda mendek hech biror odam xazon.
Siz to'kilmoq darsini mendan oling, ey bog'lar,
Kim, xazonim oldida ming bog' xazoni kam xazon (81).

Mirzo Bobur she'riyatidagi an'anaviy obrazlarga suyangan holda Sirojiddin Sayyid gul timsolida Vatan, xazon timsolida shoirning o'zini ko'radi. Mirzo Bobur lirikasida armonlari qat-qat shoir ko'ngli gulning g'unchasiga o'xshatiladi: "Mening ko'nlumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur, Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur". Sirojiddin Sayyid esa shoir ko'nglini kuzakka boy berilgan lola obraziga mengzaydi. Bu poetik tashbeh ham muallifning muvaffaqiyatli topilmasi, chunki lola bag'ridagi qora dog' alamdiyda shoirning ko'ngil holatini yaqqolroq ifoda etadi.

"Ey gul", - deya, Mirzo Bobur tilidan Vatanga xitob qiladi muallif, -"Sensiz xazon bo'ldim. Sensizligimning oqibatini ko'r: men bir uyum odam xazonga aylanib qoldim". Oldingi misralardagi "bog' xazon", "tog' xazon" "olam xazon" ifodalarini "odam xazon" ham ohang, ham mazmun jihatdan to'ldirib, lirik qahramon dramtizmini yanada kuchliroq namoyon etishga xizmat qilyapti.

Istarg'achning podshohiy bog'ida kuzak shamollariga bo'y bermay, olma shoxlarida turib qolgan xazon yaproqlari Mirzo Boburni qanchalar hayratlantirgan edi. Sirojiddin Sayyid xuddi shu holatni tabiatning "to'kilmoq darsi" deyayotgandek, inson o'rganishi, saboq olishi kerak bo'lgan dars (O.Genrining "So'nggi yaproq" hikoyasini eslang). To'kilmoq darsini ko'p va xo'p o'rgangan va o'tkargan Mirzo Bobur o'zining umr manzil-marohillarida yuksalish nuqtalarini ham to'g'ri belgilay oldi. Bu sarbaland nuqtalardan biri, shubhasiz,

"Boburnoma"dir.

Javoharla'l Neru o'zining mashhur ta'rifida Mirzo Boburning dilbarlik, mardlik, tadbirlilik xislatlarini alohida ta'kidlaydi. Mardlik, tadbirlilik uning shohlik sifatlari bo'lsa, dilbarlik - shoir Mirzo Boburning odati, shoir Mirzo Boburning ko'ngil sifati. Dilbar so'zining yoqimli, suyuqli, ko'ngil oluvchi degan ma'nolari bor. Bizningcha, milliy adabiyotimizning tarixida ham, bugunida ham o'z ko'ngil holatini o'quvchisiga Mirzo Boburchalik yuqtira oladigan ijodkor bo'lmasa kerak. Zotan, hassos adabiyotshunoslar ta'kidlaganidek, "... ko'ngil Bobur ma'naviy hayotining eng so'nmas, eng ko'rkam vodiysi erur..." Sirojiddin Sayyidning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostoni mana shu ko'rkam vodiya qilingan xayrli va ezgu safarning ibratli bir samarasidir.

III BOB

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA SHE'RIY SAN'ATLARNING O'RNI

III. 1. O'xshatish san'atining shoir ijodida tutgan o'rni

Badiiy asar shunday daraxtki, uning shoxida umumbashariy mevalar yetiladi, ildizi esa milliy zaminda yotadi²⁸. Ildizi milliy zamindan uzilmagan, shohida umumbashariy mevalar yetilgan asarlari bilan adabiyot ixlosmandlari qalbidan mustahkam o'rin olgan ijodkorlardan biri O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyiddir.

Shoir she'riyatining mavzu ko'lami keng va rang-barang obrazlar, turfa xil badiiy detallar, go'zal tasviriy vositalarga boy bo'lib, unda she'riyatning turli janrlari, she'riy san'atlarning ko'plab namunalarini uchratamiz. Uning she'rlarida istiqlol shukhi, mustaqil yurt tarovati va zamonamiz ruhi ufurib turadi. Nafaqat vatan tasviri balki inson qalbi, ichki olamini poetik kashf etishda sevgidek samimiy tuyg'ularni tarannum etishda ham ruhiyat manzaralarini go'zal va mohirona aks ettiradi.

Hayotni badiiy aks ettirishda ijod ahli o'xshatishlardan foydalanadilar. Adabiyotda betakror o'xshatishlar yaratish ijodkorning poetik mahoratini belgilovchi mezonlardan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda ma'naviy san'atlar sirasiga kiruvchi o'xshatish (Tashbeh) nazariyasiga murojat etsak: Tashbeh – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, “O'xshatish” ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbeh san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi.

²⁸ Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar/To'ldirilgan va qayta ishlangan nashri. – T.: “Sharq”, 2013. – 336 b. 222-sahifa.

Sharq adabiyotshunosligida tashbehlar haqiqiy va majoziy tashbehlarga bo‘lingan²⁹.

Aytish joizki, sof qiyosga qaraganda o‘xshatishlar nutqda sezilarli darajada katta badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega bo‘lgan qurilmalardir. Shuning uchun ham o‘xshatishlar dunyo filologiya ilmida eng qadimgi davrlardan boshlab nutq ta’sirchanligini ta’minlaydigan alohida vosita sifatida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Panini grammatikasidan boshlab o‘xshatishlar poetok figura sifatida o‘rganilgan va o‘xshatishning muntazam to‘rt unsurdan (juzv) tarkib topishi ta’kidlangan, ya’ni: 1. O‘xshatilgan narsa yoki subyekt (mushabbih); 2. Unga o‘xshash bo‘lgan narsa yoki obyekt (mushabbihun bih); 3. O‘xshatish belgisi yoki o‘xshatish asosi (vajhi shabih) – mushabbihun bilan mushabbihun bih orasidagi orasidagi munosabat); 4. O‘xshatishning formal ko‘rsatkichi. O‘zbek tilida ham, boshqa barcha tillarda bo‘lgani kabi, o‘xshatishlar to‘rt unsurdan tarkib topadi va biz ularni o‘xshatish subyekt, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi deb nomlaymiz³⁰.

Masalan: “Sevgilim go‘zallikda Shirin kabidir” deb tasvirlansa, sevgilim – subyekt (mushabbih), Shirin – obyekt (mushabbihun bih), go‘zallikda – o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi (vajhi shabih), kabidir – o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi (vositai tashbih).

She’riyatda hamma juzvi mavjud bo‘lgan o‘xshatish “tashbihi mufassal” deb ataladi.

Oq kelinchakday libosin cho‘qqilardan ko‘rgizib,
Tog‘u toshda avvalo berdi salom cho‘ponga tong.

“Tong”

Tong – subyekt,
Kelinchak – obyekt,

²⁹ Ҳоҷиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. – Т.: “Шарқ”, 1998. – 240 б. 14-саҳифа.

³⁰ Маҳмудов Н. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Т.: “Маънавият”, 2013. – 320 б. 5-саҳифа.

Oq libosin – o‘xshatish asosi,

-day – o‘xshatishning shakiliy ko‘rsatkichi.

Ba‘zan she‘riyatda o‘xshatish asosi (vajhi shabih) qo‘llanmasligi ham mumkin:

Beshiklarda o‘ynagan oppoq-oppoq qo‘lchalar,

Ko‘zmunchoqqa so‘ylagan ko‘zmunchoqday ko‘zchalar,

Ochilgan gul g‘unchalar, qandu asal kulchalar,

Momolaring to‘y qilgan ayvonlaring Vatandir.

“Vatanni anglash”

Ko‘zchalar – subyekt,

Ko‘zmunchoq – o‘xshatish etaloni,

-day – o‘xshatishning shakiliy ko‘rsatkichi,

0 – o‘xshatish asosi – mitti, chiroyli, chaqnoq.

O‘xshatishning shakiliy ko‘rsatkichi tushirib qoldirilgan bu xil o‘xshatish “tashbihi mujmal” hisoblanadi.

She‘riyatda ko‘pincha (vajhi shabih) o‘xshatish asosi bilan o‘xshatishning shakily ko‘rsatkichi har ikkisi tushirib qoldiriladi. Bu holda faqat subyekt (mushabbih) va o‘xshatish etaloni (mushabbihun bih)dan tashkil topgan oxshatish “tashbihi muyaqqad” deyiladi.

Siz – qaro sochliklarim,

Oy-quyosh yuzliklarim.

Qaldirg‘och qoshliklarim,

“Qaldirg‘och ko‘zliklarim”.

“Qaldirg‘och ko‘zliklarim”

Subyekt bitta bo‘lib, o‘xshatish etaloni birdan ortiq bo‘lsa, bu xil o‘xshatish “tashbihi jam” deb ataladi.

Bunga misol qilib shoirning “Umr” nomli she‘rini to‘liq keltirish mumkin:

Umr avval sho‘x, o‘ynoqi toyga o‘xshar,

Jilg‘a bo‘lar, so‘ngra toshqin soyga o‘xhsar.

Quyosh yangligʻ charaqlagay tong chogʻida,
Koʻklamdagi yomgʻir yuvgan oyga oʻxshar.

Bolaliging jannatidir ota uying,
Unda sening beshiklaring, beshik toʻying.
Qaddi egik otang boʻyi, sening boʻyng,
Ustoz aytgandayin kamon, yoyga oʻxshar.

Baland-balad togʻlaringda qoring bordir,
Moling yoʻqdir lekin dilda oring border.
Yigitliging, gar qalmaqosh yoring border,
Yuz ming dinor, tillosi bor boyga oʻxshar.

Koʻz ongingda bozorlari, bahorlari,
Bu dunyoning gulzorlari, gulyorlari.
Oʻtaverar uning yogʻoch tulporlari,
Bu yoni kir, u yoni sir joyga oʻxshar.

Izlarin oʻp yaxshilarning yoʻlidagi,
Yoshliging bir oqqush dahr koʻlidagi.
Umr asli kekxa onang qoʻlidagi,
Sogʻinch toʻla bir piyola choyga oʻxshar.

Ushbu sheʼrda umr – subyekt (mushabbih) hisoblanib, toy-soy-oy-quyosh-choy – kabi oʻxshatish etalonlari bilan munosabatga kirishib poetik butunlik hosil qiladi.

Oʻxshar-yangligʻ – oʻxshatishning shakily koʻrsatkichi hisoblanadi.

O'ynoqi (toy)	}	o'xshatish asosi
Toshqin (soy)		
Yomg'ir yuvgan (tiniq – oy)		
Achchiq, sarg'aygan (choy)		

Umr ta'rifi ijodkor tomonidan banddan-bandga tadrijiy o'sib boradi va so'nggi band oxiridagi baytda eng yuqori cho'qqiga ko'tariladi:

Umr asli kekxa onang qo'lidagi,

Sog'inch to'la bir piyola choyga o'xshar.

Shuningdek, she'riyatda o'xshatishning yana bir turi mavjudki, unda o'xshatish etaloni bitta va subyekt bir nechta bo'lishi mumkin. Bunday o'xshatish “tashbihi tasviya” nomi bilan yuritiladi.

Asrlar bor ro'yoday,

Fasllar bor – muvaqqat.

Doim zangor daryoday,

Yoshlik. Bahor. Muhabbat.

Yani, ushbu bandda:

Yoshlik	}	subyekt
Bahor		
Muhabbat		

Daryo – o'xshatish etaloni, -day – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi bo'lib, o'xshatish belgisi (asosi) tushirib qoldirilgan. Aslida esa o'tkinchi, toshqinlik ushbu o'xshatishdagi asos hisoblanadi.

Biz yuqorida Sirojiddin Sayyid she'rlarida tashbehning bir necha xillarini she'riy parchalar misolida ko'rib o'tdik. Individual-muallif o'xshatishlarining ko'payishi o'z navbatida baddiy tafakkurni o'stirish bilan birga til boyligining ortishiga xizmat qiladi. Va ayni damda adabiyotda betakror o'xshatishlar yaratish ijodkorning poetik mahoratini belgilovchi mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

III. 2. Talmih san'ati va tarixiy mavzu

Adabiyotshunos olim Naim Karimov “Cho‘lpon va XX asr o‘zbek she‘riyati” nomli maqolasida Cho‘lpon ijodi bilan yangi pog‘onaga ko‘tarilgan o‘zbek she‘riyatining keyingi davr ijodkorlari: Oybek, E.Vohidov, A.Oripov, Rauf Parfi va boshqa bir qator shoirlar ijodida “cho‘lponona kuch” xususida gapirib, “Cho‘lpon ular uchun yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat etdi”, deydi. Va shu o‘rinda olim bugungi o‘zbek she‘riyati oldida turgan asosiy vazifa sifatida quyidagilarni alohida qayd etadi: “Bugun o‘zbek she‘riyati o‘z tarixining yangi davriga qadam qo‘ydi. Istiqlol davriga xos muhim xususiyatlardan biri shundaki, milliy ranglarga ega bo‘lish va milliy qadriyatlarni sharaflash bilan birga milliy haqiqatni kashf etish, inson qalbini yaqindan his qilish, uning teran qatlamlariga nazar tashlash, undagi ezgu va zaif jihatlarni nurlantirish orqali tomoshaga o‘ch olomonni xalq darajasiga, o‘z g‘ururini bilgan, kelajakka yorug‘ yuz bilan intilgan xalq darjasiga ko‘tarishdir”³¹.

Olim ta’kidlagan tamoyillarning barchasini O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ijodida yaqqol ko‘ra olamiz. Bu fikrlarga esh tarzda N.Rahimjonovning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovordir: “Shoir she‘rlarini yaxlit mujassamlashtiruvchi, odamlar qalbini sehrlab tortib turuvchi bir kuch bor. Bu – ona yurtga, mo‘ysafid xalqimizga bo‘lgan adoqsiz muhabbatdir”³².

Professor Nurboy Abdulhakim “Ruhim xaritasi”dan “Dil fasli”gacha” nomli maqolasida shoir she‘rlaridagi alohida fazilat sifatida quyidagilarni yozadi: “... ulug‘ salaf'larga bo‘lgan ehtirom yorqin ifodalanishidir. Ahmad Yassaviy, Navoiy, Maxtumquli, Bobur, Mashrab, Furqat kabi ijodkorlarga bag‘ishlangan she‘rlar, ular g‘azallariga bog‘langan muxammaslar ham buni tasdiqlaydi”³³.

Shoir vatanparvarlik, yurtsevarlik, ilm-u ma’rifat g‘oyalarini ifodalash uchun qator she‘rlarida talmih san’atidan ustalik bilan foydalanganligi e’tiborimizni

³¹ Ўзбек адабий танқиди [анталогия] тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов; таҳрир хайъати У.Норматов [ва бошқалар]. – Т.: “Турон-Иқбол”, 2011. – 544 б. 122-саҳифа.

³² Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: “Фан”, 2007. 154-саҳифа.

³³ Саййид Сирожиддин. Сўз йўли: танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Т.: “Шарқ”, 2008. – 384 б. 364-саҳифа.

tortdi. Ushbu she'riy san'at talablari asosida shoirning "So'z yo'li" II jildlik tanlangan asarlar kitobini taftish etdik.

Talmih (nazar solmoq) she'r nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'ati³⁴dir.

Shoirlar muhabbat mavzusidagi she'rlarida ko'pincha Sharqda keng tarqalgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" va boshqa bir qator qissa va dostonlar qahramonlari nomlariga ishora qiladilar.

O'quvchi u yoki bu nomga ishorani ko'rar ekan, uning ko'z oldiga o'sha qissa, doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojiali taqdiri jonlanib, shoir demoqchi bo'lgan g'oyani, fikrni, tuyg'uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqur anglab yetadi. Zero, bu jarayonda o'quvchi o'zi mutolaa qilayotgan asar qahramoni hayoti, ma'naviy qiyofasini o'sha mashhur qissa, afsona qahramoni bilan qiyoslaydi. "She'riyatimizda Sharqda mashhur bo'lgan muhabbat qissalari, ularning qahramonlari nomlariga ishora qilish ham juda ko'p uchraydi... Shoirlar ko'pincha Qur'on suralarida aks ettirilgan afsonalar, hikoyalar qahramonlari: payg'ambarlar, farishtalar nomlariga ishora qiladilar"³⁵.

Yuqoridagi xususiyatlar mumtoz adabiyotimiz namoyandalari ijodiy merosida ko'proq ko'zga tashlanadi. Ushbu she'riy san'at turi mumtoz adabiyotimizda ham, hozirgi zamon she'riyatida ham keng qo'llanilgan ma'naviy san'at hisoblanadi.

XX asr so'nggi choragiga kelib she'riyatdagi ijodiy izlanishlar samarasi o'laroq talmih san'ati ham yangicha talqinlarda o'z badiiy ifodasini topmoqda. Ushbu san'atning bugungi davr she'riyatida afsonalar qahramonlariga, romantik qahramonlarga emas, balki real qahramonlar, tarixiy shaxslar nomiga ishora qilishga intilish kuchaydi. Bu jarayon yangi davr demokratik tafakkur mahsuli sifatida maydonga keldi desak, adashmaymiz.

³⁴Хожиахмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. – Т.: "Сапк", 1998. – 240 б. 14-саҳифа.

³⁵ Хожиахмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. – Т.: "Сапк", 1998. – 240 б. 15-саҳифа.

Ayniqsa, XX asr o'zbek she'riyatida tarixiy shaxslarning nomiga murojat etishning ilk va eng yuksak namunalari Erkin Vohidovning "O'zbekim", Abdulla Oripovning "O'zbekiston" qasidalarida yetakchi tasvir usuli sifatida asar ta'sirchanligini ta'min etganligining guvohi bo'lamiz.

Mazkur she'riy san'atdan foydalanish an'anasi Sirojiddin Sayyid ijodida ham davom etib, yangi bosqichda yangicha talqinlarda namoyon bo'lmoqda. Uning Vatan mavzusidagi she'rlarida tarixiy shaxslar siymosi va merosi har jihatdan ibrat namunasi ekanligi ta'kidlanadi.

Shoir she'rlarida zikr etilgan tarixiy shaxslar nomlarini to'rt toifaga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ular quyidagilar:

- a. Tasavvuf allomalari;
- b. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari;
- c. Amir Temur va temuriyzodalar;
- d. XX asr o'zbek adabiyoti vakillari.

"Oz so'zga ko'p ma'no yuklay olish shoirdan juda katta iqtidorni talab etadi. Sirojiddin Sayyid she'rlarida bu fazilat bo'rtib ko'rinadi, -deydi professor N.Abdulhakim. Va shoir ijodidan bir band she'r matni tahlili misolida fikrlari tasdig'ini dalillaydi. –"Vatan abadiy" she'ridan olingan quyidagi iqtibos ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Har tepa, har do'nglik turbat emasdir,
Har qanday ayriliq g'urbat emasdir.
Yurtdan ketgan har zot Furqat emasdir,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.

"Har qanday ayriliq g'urbat emasdir" - ohorli va teran xulosa! Zero, "g'urbat" - mohiyat e'tibori bilan qamrovli tushuncha. "Farhangi istilohoti va ta'biroti irfoniy"da keltirilishicha, "g'urbat" so'zi uch xil ma'noni ifodalaydi: 1. Vatandan judolik g'urbati, 2. Johil va fosiq qavm orasida majburan, ya'ni g'ayriixtiyoriy ravishda o'tirgan odam g'urbati. 3. Haq talabidagi orifning g'urbati. Shoir Furqatning g'urbati ana shu ma'nolarning barchasini o'zida mujassam etgani

tadqiqotlardan ma'lum. "Yurtdan ketgan har zot Furqat emasdir" degan misrada o'nlab sahifalarda bayon etish mumkin bo'lgan ana shunday chuqur mohiyat ifodalangan. Banddagi har bir misra fikrning izchil, tugal bo'lishiga, "Vatan qolar ekan, Vatan abadiy" degan barhayot haqiqatni anglatishga xizmat qilganini ta'kidlash kerak"³⁶.

Olimning fikrlariga esh tarzda shoirning "Vatan" nomli she'ridan olingan quyidagi satrlar ham g'oyat e'tiborga loyiqdir:

...Valiylardan ibrat so'ylar juldur sahrolar,
So'ndi qancha saltanatlar, qancha tug'rolar.
Maqbaralar aytsin, lekin aytsin Zuhrolar,
Yer ostida suhbat aytar hanuz Kubrolar,
Termiziylar bedor yotgan qo'rg'onim Vatan.

Abadiy yod erur adabiyoting
Cho'lpon, Fitrat, Qodiriy ham Usmonim Vatan.

Temurlari ot minganda jahon lol bo'lgan.

Xatlar oldim yuragimga Naqshbandlardan, kabi satrlarda zikr etilgan siymolar nomini eshitganda kishi qalbida milliy iftixor tuyg'ulari mavj uradi. Yuqorida aytganimiz singari she'rda keltirilgan ulug'lar nomi vatanparvarlik g'oyalarini yuksaltirguvchi kuch bo'lib, she'r ta'sirchanligi va jozibasini ta'min etayapti.

Shoirning "Vatan nadir" she'rda hadis ilmi sultoni Al-Buxoriy, shoh va shoir Bobur, sohibqiron Amir Temur, Furqat va Cho'lpon nomlari keltirilishi bilan birga ular qismatidagi va yurtimiz boshidan kechirgan achchiq haqiqatlar ro'y-rost aytiladi. She'r to'qqiz band bo'lib "Vatan nadir?" so'rog'iga misrama-misra, bandma-band tadrijiy javob izlanadi.

³⁶ Саййид Сирожиiddин. Сўз йўли: танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Т.: "Шарқ", 2008. – 384 б. 364-саҳифа.

Buxoriyni Buxorodan quvgʻin qilgan,
Bir zoʻravon, bir notovon yurt edi bu.

Vatan nadir anaglang ranju ozoridan,
Soʻrang uni podshoh Bobur mozoridan.

Dilni oʻrtar hamon gʻam-u gʻurbatlari,
Yot ellarda qolib ketdi tubatlari,
“Figʻonkim...” deb oʻtdi qancha Furqatlari,
Yorkentlarda koʻzi jayron yurt edi bu.

Oʻzi gulday oʻgʻlonlarin saylab berib,
Roʻyxatlarga nomlarini joylab berib,
Choʻlponlarin oʻzi itday boylab berib,
Izlaridan oʻzi giryon yurt edi bu.

Ndir millat qudratining tamadduni?
Amir Temur haykalidan soʻrang buni.
Ot mindirib kim qaytardi yurtga uni?
Jahongiri behonumon yurt edi bu.

Sheʼrni oʻqish asnosida oʻquvchi koʻz ongida xalqimiz boshidan kechirgan oʻtmish voqealari jonlanadi. Oʻquvchini xushyor torttiradi. Vatanparvarlik va birdamlikka chorlaydi. Soʻnggi band sheʼrning xulosasi boʻlib, unda istiqlol shukronasi ifoda etiladi.

Shoirning “Mangu nomlar” sheʼri boshdan-oxir talmih sanʼati zamirida qurilgani bilan ajralib turadi. Unda tarixiy shaxslar va ular tugʻilgan manzillar nomi yonma-yon tasvirlanadi.

O'chmas Yer yuzida Buxoro nomi,
Toki yashar ekan Buxoriy nomi.

Mangu esaverar Termiz yellari,
Toki nur taratgay Termiziylari.

O'pdi bu tuproqdan neki jon bordir,
Hazrat Yassaviy bor – Turkiston bordir.

Amudaryolari abadiy azim,
Manguberdilari mangu Xorazm.

Dunyo g'urbatiga nazar tashlablar,
O'tdi Boburlar-u o'tdi Mashrablar.

Garchi osmon qadar afg'on etdilar,
Ular Vatan nomin osmon etdilar.

Uzilmas bu yurt dan iymon torlari,
Toki hikmat so'ylar Olloyorlari.

Ey, boshdan oyog'i ruh va yod, Vatan,
Ulug' siymolari barhayot, Vatan.

Sening dovrug'ing-u shoning o'chmagay,
Abadiyat qadar noming o'chmagay!

Avval boshda ta'kidlaganimizdek talmih san'ati vositasida ijodkor mashhur adabiy asarlarga ham ishora qiladi. Shu asosda Sirojiddin Sayyid ijodi ko'zdan kechirilganida uning "Mangu nomlar", "Navoiyning bog'lari", "To Navoiy bor"

nomli she'rlarida "Nasoyim ul-muhabbat", "Xazoyin ul-maoniy", "Xamsa", "Boburnoma" kabi durdona asarlarga ishora qilinganini kuzatamiz.

Shoirning "Manzillar" she'ri talmih san'atining har ikkala talabiga ham birday javob bera oladi. Ushbu she'rda ham Navoiy va Bobur nomi, ham "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Boburnoma" singari mumtoz adabiy yodgorliklar nomlari birgalikda zikr etiladi.

Qobulgacha – besh yuz yog'och,
To Hirot – ming chaqirim.
Ovoz yetmas, yo'qdir iloj,
Yuz yil yursang chaqirib.

Misli egiz ko'z-u qosh-u
Mizli yaxlit taxt-u tij.
Boburgacha – besh yuz tosh-u
To Navoiy – ming yog'och.

Bular aslo emas raqam
Va yo tarix yillari.
Yo'llaridir "Xamsa"ning ham
"Boburnoma" yo'llari.

Ma'naviyat jahoniga
Osmonlardir musaffo.
"Xazoyin ul maoniy"ga
Yetkazguvchi masofa.

Nadir asli umr ko'rmoq –
Kasbi kamol etmakdir.

Navoiyga yetib bormoq
Ming yillik yo‘l demakdir.

“Navoiyning bog‘lari” she‘ridagi quyidagi bandda ham hazrat Alisher Navoiyning durdona asarlari nomi go‘zal va jozibali misralarda zikr etiladi:

Ma‘rifatdir olamshumul,
Muhabbatdir jahoniy.
“Nasoyim ul-muhabbat” ham
“Xazoyin ul-maoniy”.
Osmonlari ruhdan bino
Qalb erur tuproqlari.
Navoiyning bog‘laridir,
Navoiyning bog‘lari.

Bundan tashqari shoirning “Mutola”, “Ilinj”, “She‘riyat bu...”, “Vatan desam” she‘rlari va “Shamnoma” turkumida ham bir qancha mumtoz siymolar nomi zikr etiladiki, o‘quvchi tafakkurida o‘sha buyuk shaxslar hayoti, merosi haqida xayollari jonlanadi, qalbida ajdodlarga nisbatan ehtirom tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

Sohibqiron Amir Temur, hazrat Navoiy, Bobur, Mirzo Ulug‘bek, Mashrab, Maxtumquli, Ogahiy, Feruz, Buxoriy, Termiziy, Naqshbandiy, Yassaviy, Farididdin Attor, Mavlono Rumi, So‘fi Olloyor singari mumtoz siymolar hamda Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Oybek, Abdulla Qahhor va boshqa bir qator yangi o‘zbek adabiyoti namoyandalarining nomlari har bir she‘r misrasida alohida o‘ringa ega. Bu ulug‘ zotlarga bo‘lgan shoirning ehtiromi namunasidir.

Sirojiddin Sayyid o‘z navbatida ulardan ibrat oladi, ilhomlanadi, purma’no satrlarda goh hayratini, goh e‘zozini ifoda etadi. Bu kabi tahlil asosida shoir ijodi suv ichgan asl, tiniq buloqlar qayerdan boshlangani oydinlashadi.

XULOSA

Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti, xususan, istiqlol she'riyati turfa shakliy va uslubiy yangilanishlarni boshdan kechirayotgan bir jarayonda Sirojiddin Sayyid ijodi ham tom ma'noda o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Shoir, jurnalist va tarjimon Sirojiddin Sayyidning ijodi keng qamrovli mavzu mundarijasiga ega. Ushbu ishimizda serqirra ijodkorning she'riyat va dostonchilikdagi ayrim jihatlari tadqiq etildi. Uning jurnalistik mahorati, tarjimachilik sohasidagi yutuqlarini o'rganish yangi mavzudagi tadqiqotlarni maydonga keltiradi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir"³⁷. Darvoqe, xalq ma'naviyatining tiklanishi, jamiyat tafakkuri taraqqiyotida adabiyotning o'rni beqiyos. Ayniqsa, she'riyat bu borada hozirjavobligi bilan ajralib turadi.

"Adabiyot va mafkura munosabati qanday bo'lishini quyidagicha izohlash mumkin: ijodkor muayyan mafkuraga moyil bo'lgani holda uning estetik ideali umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan, demakki, bu idealda ko'hna zamonlardan beri ajdodlarimiz intilib yashayotgan ezgu maqsadlar o'zining quyuqlashgan ifodasini topgan. Umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan ideal zamonda cheklangan emas: ideal – ajdodlarimiz eng qadim zamonlardan intilib yashagan ezgu maqsadlar avloddan avlodga to'lishib, mukammallashib, sayqallanib boradiki, bu jarayon uzluksiz va benihoyadir"³⁸, -deya qayd etganida adabiyotshunos D.Quronov to'g'ri fikrni aytgan edi.

Sirojiddin Sayyid ijodi haqida bildirilgan mulohozalarni umumlashtirgan holda uning bir qator to'plamlarida e'lon qilingan she'r va dostonlariga adabiy-

³⁷ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent, "Ma'naviyat". 2013. –176 b. 19-sahifa.

³⁸ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: "Fan" 2007. – 228 b. 47-sahifa.

estetik tamoyillar asosida, adabiyotshunoslarimizning nazariy qarashlarini tadbqiq etib, shoir poetik mahorati va ijodiy individualligi xususida muayyan xulosalar chiqarildi. Sirojiddin Sayyid ijodining o'zbek adbiyotida tutgan o'rni, mustaqillik davri she'riyatidagi egallagan nufuzi, badiiy mahorat, dostonchiligi, ijodiy izlanish va novatorlik, she'riy san'atlarnining badiiy kashfiyotlar yaratishdagi ahamiyatini tadqiq etish bilan ijodkorning o'ziga xos qirralari va asarlarining yangicha talqinlari ochib berildi.

Shoir she'rlarida istiqlol shukuhi, mustaqillik tarovati va zamonamiz ruhi ufurib turadi. Shuningdek, insonning ichki olamini poetik kashf etishda, sevgidek samimiy tuyg'ular tarannumida ruhiyat manzaralarini go'zal dalillar bilan badiiy bo'yoqlarda mohirona tasvirlaydi.

D.Quronov lirik asar tili haqida shunday yozadi: "Lirik asar tilining emotsionalligi ko'proq lirik qahramonning konkret paytdagi (lirik asarda badiiy vaqtning juda qisqaligi, "hozir" bilan belgilanishini e'tiborga olish zarur) kayfiyati, holati, kechinmalari bilan bog'liq bo'ladi"³⁹. Ijodkor mahorat qirralarining namoyon bo'lishi asarning shirali tiliga ham bog'liq, albatta. Sirojiddin Sayyid she'riyatida xalq tiliga yaqinlik uni xalq qalbiga yaqinlashtirdi desak, adashmaymiz.

Sirojiddin Sayyidning poetik obrazlari ona zamindan, o'zbek tuprog'idan kuch-quvvat oladi. Qanot bog'lab ko'kka ko'tariladi. Shoir she'rlarida ona o'lkamiz tabiati, gulzorlarining ifori bo'yi-tarovati, qir-adirlar-u ko'm-ko'k osmonning hidi, rangi balqib turadi. Zamondoshlarimizning orzu kechinmalari, o'y-fikrlari, go'zallik ideali-yu adolat tuyg'ulari o'z ifodasini topadi.

Keyingi yillarda, ayniqsa, istiqlol sharofati bilan tarixga, qadimiy qadriyatlarga, jumladan tarixiy shaxslar hayotiga qiziqish bir qadar ortdi. Shunday siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Adabiyotimizda Bobur shaxsiyatiga bag'ishlangan talay she'rlar bilan bir qatorda yirik epik va lirik

³⁹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: "Fan" 2007. – 228 b. 47-sahifa.

dostonlar ham yaratilmoqda. Ana shunday dostonlardan biri Sirojiddin Sayyidning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostoni hisoblanadi.

Sirojiddin Sayyidning dostonnavislikdagi yutuqlari o‘ziga xos izlanish va novatorligi uning Bobur hayotiga bag‘ishlangan dostonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir yaratgan dostonlarida tarix va bugun, insoniyat kechmishi va kechinmalari talqini, umr mazmuni, tiriklik falsafasi keng qamrovli mushohada etiladi.

Yuqoridagi fikrlarni bir maxrajga umumlashtiradigan bo‘lsak, o‘zbek adabiyotida yangicha yo‘sinidagi asarlarning namoyon bo‘lish yo‘llarini, badiiyatini, estetik ahamiyatini, umuminsoniy va milliy ildizlarini, taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish dolzarbdir. Shu ma’noda, Sirojiddin Sayyid ijodi misolida o‘zbek she’riyatida badiiy vositalarning o‘rni xususida fikr yuritish mustaqillik davri o‘zbek she’riyati manzaralari haqida muayyan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: «Ўзбекистон», 2009. – 39 бет.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Т.: “Ma’naviyat”. 2013. –173 b.
3. Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар: –Т.: «Ўзбекистон», 2001. – 334 бет.
4. Каримов И.А. Илму фан мамлакатимиз тараққиётига хизмат қилсин. Асарлар тўплами. 2-жилд. –Т.: «Ўзбекистон», 1996. – 225 бет.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: «Ўзбекистон», 1999. – 252 бет.

II. Ilmiy adabiyotlar:

1. Адабий турлар ва жанрлар (Тарихи ва назариясига оид) III жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: «Фан», 1992. – 246 бет.
2. Бадий матн таҳлили ва талқин муаммолари. – Т.: Низомий номидаги ТДПИ, 2012. – 310 бет.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.–Т.:«Ўзбекистон»,2001.–560 бет.
4. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: «Ўқитувчи», 1996. – 344 бет.
5. Бугунги ўзбек адабиётининг баъзи муаммолари. 1-қисм. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2013. – 100 бет.
6. Умунов Ҳ. Адабиёт қоидалари. – Т.: «Ўқитувчи», 2013. – 238 бет.
7. Умунов Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 262 бет.
8. Умунов Ҳ. Таҳлил чизгилари. – Т.: «Мухаррир», 2013. 239 бет.
9. Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур. – Т.: «Шарқ», 2007. – 120 бет.

10. Ҳасанов Ш. Достон таркиби ва табиати: Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. – 230 бет.
11. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадият малоҳати. – Т.: «Шарқ», 1998. – 240 бет.
12. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar/To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri. – Т.: “Sharq”, 2013. – 336 b.
13. Маҳмудов Н. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Т.: «Маънавият», 2013. – 320 бет.
14. Мустақиллик даври адабиёти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2006. – 287 бет.
15. Ўзбек адабий танқиди [анталогия] тузувчи ва нашрга тайёрловчи БЕТ.Каримов; таҳрир ҳайъати У.Норматов [ва бошқалар]. – Т.: «Турон-Иқбол», 2011. – 544 бет.
16. Каримова Ю. Бобур ҳақида янги достон//Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. 5-сон. 75-79-саҳифалар.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV томлик. I том, – Т.: «Ўзбек. Миллий энц. Дав.ил.наш», 2006.
18. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т.: “Fan” 2007. – 228 b.
19. Қуронов Д. ва бет. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – 310 бет.
20. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Т.: «Фан» 2007. – 255 бет.
21. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик: илмий-адабий мақолалар, талқинлар, етюдлар. – Т.: «Шарқ», 2007. – 136 бет.
22. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: «Ўқитувчи» нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. – 272 бет.
23. Тил ва адабиёт муаммолари. 6-чиқиши. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2013. – 290 бет.
24. Тил ва адабиёт муаммолари. II қисм. 7-чиқиши. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2015. – 290 бет.

- 25.Тимсоллар тилсими (Рамз, белги ва тимсоллар тасвири). Тузувчи Дилрабо Мингбоева. – Т.: «Янги аср авлоди», 2007. – 170 бет.
- 26.Воҳидов Э. Изтиробет. – Т.: «Ўзбекистон», 1992. – 240 бет.
- 27.Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: «ЎАЖБНТ» Маркази, 2003. – 361 бет.

III. Бадиий адабиётлар:

1. Саййид С. Кўксимдаги зангорларим: Шеърлар, – Т.: «Маънавият», 2002. – 192 бет.
2. Саййид С. Очил, эй гул, ки бўстон вақти бўлди: Шеърлар, ғазаллар ва мухаммаслар, таржима. – Т.: «Шарқ», 2014. – 512 бет.
3. Саййид С. Қалдирғочларга бер айвонларингни: Сайланма, – Т.: «Шарқ», 2005. – 208 бет.
4. Саййид С. Севги мамлакати: Шеърлар, – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 76 бет.
5. Саййид С. Сўз йўли: Танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Т.: «Шарқ», 2008. – 384 бет.
6. Саййид С. Сўз йўли: Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2-жилд. – Т.: «Шарқ», 2008. – 384 бет.
7. Саййид С. Устимиздан ўтган ойлар: Шеърлар,–Т.: «Чўлпон», 2002. – 192 бет.
8. Саййид С. Уйингдаги бешиклар: Шеърлар, –Т.: «Ёзувчи»,1996. –88 бет.
9. Саййид С. Юз оҳ, Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: «Ўзбекистон», 2010. –160 бет.

ILOVA

Musaqulov Mirzohidning mavzuga doir va mavzu atrofida ilmiy maqolalar to'plami hamda matbuotda chop etilgan maqolalari ro'yxati:

1. **Sirojiddin Sayyid she'rlarida qaldirg'och timsoli** – Bugungi o'zbek adabiyotining ba'zi muammolari. 1-qism. Ilmiy maqolalar to'plami. – Samarqand, SamDU nashri, 2013-yil. – 100 b. 95-sahifa.
2. **Sirojiddin Sayyid she'rlarida armon tasviri** – Til va adabiyot muammolari. Ilmiy maqolalar to'plami. 6-chiqishi. – Samarqand: SamDU, 2013. – 290 b. 232-sahifa.
3. **Keling, yomg'irlarim, qaldirg'ochlarim** – Jomboy tongi. 2013-yil, 21-may.
4. **Vatanni sevoylik** – Ulug'bek vorislari. 2014-yil, 29-noyabr.
5. **Sirojiddin Sayyid – Yurt oshig'i** – Til va adabiyot muammolari. II qism. Ilmiy maqolalar to'plami. 7-chiqishi. – Samarqand: SamDU, 2015. – 224 b. 147-sahifa.
6. **Onaga ehtirom – Vatanga muhabbat** – Samarqand. 2015-yil, 27-may.
7. **Muhammad Yusuf she'riyatida Qodiriy siymosi** – Dastlabki qadamlar. Ilmiy maqolalar to'plami. 7-chiqishi. – Samarqand: SamDU, 2014. – 96 b. 39-sahifa.
8. **Qodiriy shaxsi va merosi Muhammad Yusuf talqinida** (prof. A.Soliyev) – Samarqand. 2015-yil, 8-aprel.
9. **Qodiriy shaxsi va merosi Muhammad Yusuf talqinida** (prof. A.Soliyev) – Fidoyi yoshlar. 2015-yil, 9-aprel.
10. **Dardlardan baxt undirish mashqi, shoira Jumagul Suvonovanning “Tuproq isi” kitobi haqida** (o'qit. E.Qulahmedov) – Samarqand. 2014-yil, 4-dekabr.
11. **“Tuproq isi” – Vatan havosi** (o'qit. E.Qulahmedov) – Til va adabiyot muammolari. II qism. Ilmiy maqolalar to'plami. 7-chiqishi. – Samarqand: SamDU, 2015. – 224 b. 147-sahifa.
12. **Seni kuylayman, Bahor** – Zarafshon. 2013-yil, 28-fevral.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I Bob. Sirojiddin Sayyid ijodining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni

I.1. Shoir she‘riyati va badiiy mahorat.....	7
I.2. Shoir she‘riyatida vatan mavzusi va vatanparvarlik ruhi.....	23
I.3. Sirojiddin Sayyid she‘rlarida qaldirg‘och timsoli.....	28
I.4. Sirojiddin Sayyid she‘rlarida armon tasviri.....	33

II Bob. Dostonchilikdagi izlanish va novatorlik.

II.1. Sirojiddin Sayyid dostonlari.....	36
II.2. Hozirgi o‘zbek adabiyotida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yaratilgan dostonlar.....	39
II.3. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...(Firoq va sog‘inch dostoni)”.....	46

III Bob. Sirojiddin Sayyid ijodida she‘riy san’atlarning o‘rni

III.1. O‘xshatish san’atining shoir ijodida tutgan o‘rni.....	53
III.2. Talmih san’ati va tarixiy mavzu.....	58

Xulosa.....	66
-------------	----

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	69
---	----

Ilova.....	72
------------	----